

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»

**Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'tet dekani,
t.f.n., dotsent**

_____ **N.B. Dehqonov**

«__» _____ 2017 y.

5111000-Kasb ta'limi (5230100-Iqtisodiyot)

ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Alisherova Marhabo Anvarjon qizining

**“SANOAT KORXONASI FAOLIYATIDA
TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHNING
ASOSIY YO'NALISHLARI” mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

Iqtisodiyot kafedrasi mudiri

_____ **i.f.n. K.Sirojiddinov**

«__» _____ 2017 y.

BMI rahbari: i.f.n.

K.Sirojiddinov

Namangan-2017

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	SANOAT KORXONALARIDA TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISH VA XATARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	9
1.1.	Sanoat korxonalarida tavakkalchilikning mohiyati.....	9
1.2.	Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarish.....	16
1.3.	Sanoat korxonalarida risklarni baholash.....	22
II BOB.	NAMANGAN VILOYATI SANOAT KORXONALARIDA TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISH MASALALARI IQTISODIY TAHLILI.....	29
2.1.	Namangan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat korxonalarining o'рни.....	29
2.2.	Namangan viloyati sanoat korxonalarida tavakkalchilikni kamaytirish tahlili.....	36
2.3.	Namangan Mexmash AJda tavakkalchilikni kamaytirish imkoniyatlari.....	42
III BOB.	SANOAT KORXONALARIDA TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	53
3.1.	Sanoat korxonalari assortiment shakllanishining ilmiy-uslubiy asoslari.....	53
3.2.	Sanoat korxonalarida moliyaviy tavakkalchilikni boshqarish.....	64
	XULOSA.....	71
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	78

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash hukumatimiz iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Eng avvalo korxona raqobatbardoshligi mavjud iqtisodiy kon'yuktura, undagi xatarlar darajasi uni olidini olish va tavakkalchilikni boshqarish masalalari bilan bog'liq bo'ladi. Respublikamiz iqtisodiyotini tubdan qayta qurish va undagi tarkibiy o'zgarishlarning mohiyati ham aynan mavjud tavakkalchilik darajasini pasaytirish bilan bog'liqdir. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida tarkibiy o'zgarishlar siyosati:

- mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini ko'tarish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, YaIM, eksport kabi ko'rsatkichlarda alohida tarmoq mahsuloti yoki mahsulot guruhining ustunlik qilishiga barham berish;

- tashqi bozorlardagi kon'yunktura o'zgarishlariga kam ta'sirchan bo'lgan tarmoqlar va sohalarning YaIM va bandlikdagi ulushining yuqori bo'lishini ta'minlash;

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek eksport qiluvchi korxona va tarmoqlarning xomashyo va butlovchi qismlar bilan ta'minlanishida mahalliy korxonalar ulushining ustunligiga erishish;

- yuqori texnologiyalar va zamonaviy texnika bilan qurollangan, arzon va sifatli, tashqi bozorda bimalol raqobatga kirisha oladigan sanoat tarmoqlarining sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlaridagi ulushini oshirish;

- kon'yunktura o'zgarishlariga tez moslashuvchan, kapital sig'imi past bo'lgan soha va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'ini oshirishga erishish yo'nalishlarida olib borilmoqda¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 122 b.

Tavakkalchilik darajasini pasaytirishda tarkibiy o'zgarishlar bilan bir qatorda diversifikatsiyalash jarayonlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi:

“Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratishni istardim.

2010 yilda sanoat ishlab chiqarish tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotning ulushi 50 foizdan ziyodni tashkil etdi.

Mamlakatimiz sanoat korxonalari tomonidan o'tgan yili 160 dan ortiq turdagi yangi tovar va mahsulotlar, jumladan, mutlaqo yangi texnologik platforma negizida “Spark” yengil avtomobilini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, katta hajmda yuk tashiydigan “MAN” avtomobillarini, energiya tejaydigan lampalar, “ELJi” rusumidagi jahonga mashhur xolodilniklarni yig'ish, kaliy o'g'itlari va boshqa muhim mahsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborildi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2010 yilda 1 ming 76 ta loyiha amalga oshirildi. Mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar oshdi, import o'rnini bosish bo'yicha yakuniy samaradorlik 3 milliard 400 million dollarni tashkil qildi va bu 2009 yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p demakdir².

Ammo, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat korxonalarning rahbar-menejerlari zamon talablari asosida faoliyat yuritmayotganliklari, korxonalarda tavakkalchilikni boshqarish mexanizmlari shakllantirilmaganligi, sababli korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat tashqi bozorlarda, balki ichki bozorlarda ham o'z o'rnini topa olmayapti, natijada, ular korxonalarning iqtisodiy-moliyaviy salohiyatiga, samaradorlik darajasiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bu haqda Respublika Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: “Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgari lab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili printsiptial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi,

² Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. – Xalq so'zi, 2011 yil, 22 yanvar.

deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir. Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak”³.

Ushbu holatlar sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarish, boshqaruv sohasida amaliy, ilmiy-nazariy izlanishlar olib borishni, boshqaruv mehnati xodimlari ishini takomillashtirish va tahlil etish usullarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda hamda mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarishni tashkil etish va uning samaradorligini oshirish borasidagi tadqiqotlar chet el olimlari J.P. Anderson, V.J.Damgen, J.P.Kotler, M.Meskon, F.Taylor, G.Emerson, A.Fayol, I.SHonberger, N.A.Saymonlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. MDH mamlakatlarining olimlaridan A.I.Kibanov, Z.R.Rumyantseva, V.M.Gal'nertsna, M.A.Salamatinalar boshqaruv nazariyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlar. SHuningdek, bu boradagi tadqiqotlar respublikamiz iqtisodchi olimlarining ham qator ilmiy izlanishlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, M.SHarifxo'jaev, T.E. Ergashev, R.Ismatov, D.N.Raximova, SH.N.Zaynutdinov, D.Eshonxo'jaev, I.S.Sayifnazarov, I.U. Murataev, Q. Abdurahmonov, A.Sotvoldiyev, R.A.Fathuddinov, S.S.G'ulomov va boshqalarning ilmiy ishlarida boshqaruv masalalari o'ziga xos tarzda talqin etilgan.

Biroq, sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarishni tashkil etish, xatarlarni pasaytirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish, tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilab berish muammolari yetarlicha yoritilmagan.

³ **Mirziyoyev SH. M..** Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiyjavobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundaliqoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariva 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvarg'. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

Shu munosabat bilan O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida mazkur muammoga taalluqli bo'lgan va uni takomillashtirishni ta'minlovchi ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarishni takomillashtirish muammosi yechimlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berish bugungi kunda respublikamiz, jumladan Namangan viloyati sanoat korxonalari iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorilarni e'tiborga olgan holda tavakkalchilikni boshqarishni zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq etilishi ushbu mavzuni tanlashga va tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

BMIning maqsadi va vazifalari. Mazkur BMIning maqsadi bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini oshirish va uni kamaytirish yuzasidan ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

- Sanoat korxonalarida tavakkalchilikning mohiyati va mazmunini yoritib berish;
- Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq etish;
- Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni baholash yo'nalishlarini ochib berish;
- Namangan viloyatining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida sanoat korxonalarining o'rnini tavsiflash;
- Ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish Namangan viloyati to'qimachilik tarmog'i korxonalarida iqtisodiy tavakkalchilikni maqbullashtirish omili sifatidagi o'rnini baholash;

- Namangan viloyati sanoat korxonalari ishlab chiqarish quvvatlari foydalanish jarayonini tashkil etish va samaradorligini oshirish jarayonlarini tahlil etish;

- Investitsiyalash iqtisodiy xatarlarni minimallashtirishning moddiy asosi sifatidagi rolini ochib berish;

- Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni innovatsion investitsiyalashtirish jarayonida maqbullashtirish yo'nalishlarini tadqiq etish;

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy xatarlarni boshqarish samaradorligini bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari olindi.

Tadqiqotning predmeti sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarishni tashkil etish asosida samaradorlikni oshirishga oid iqtisodiy munosabatlar tizimi xizmat qildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo'llanishi orqali sanoat korxonalarida boshqaruv mehnatini samarali tashkil etish va uning samaradorligini oshirishga, ishchi-xodimlar va korxona mulkdorlarining moddiy manfaatdorlik darajasini ko'tarilishiga erishiladi. Bundan tashqari dissertatsiyada asoslangan nazariy xulosa va materiallardan oliy biznes maktablarida, kasb-hunar kollejlarda sanoat korxonalari boshqaruviga oid fanlarning o'quv dasturlari doirasida foydalanish mumkin.

BMI tarkibi. BMI kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning ob'yekti va predmeti, uslubiy va nazariy asosi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati bayon etilgan.

« Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni kamaytirish va xatarni boshqarishning nazariy asoslari» nomli birinchi bobda tavakkalchilikni boshqarishni

tashkil etishning mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari hamda boshqaruvning nazariy usul va uslublari yoritilgan.

«Namangan viloyati sanoat korxonalarida tavakkalchilikni kamaytirish masalalari iqtisodiy tahlili» nomli ikkinchi bobda Namangan viloyatidagi ishlab chiqarish faoliyati atroflicha tahlil etilgan hamda ularda tavakkalchilikni pasaytirish va xatarlarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari va ularga salbiy ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan.

« Namangan viloyati sanoat korxonalarida tavakkalchilikni kamaytirish masalalari iqtisodiy tahlili» nomli uchinchi bobda bozor iqtisodiyoti sharoitida tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini oshirish, va uni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Ishning xulosa va takliflar qismida tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda asosiy ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

I BOB. SANOAT KORXONALARIDA TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISH VA XATARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Sanoat korxonalarida tavakkalchilikning mohiyati

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni izchil amalga oshirilgan ekan, bizning eng birinchi galdagi vazifamiz mulkdorlar sinfini shakllantirish barobarida kichik biznesni rivojlantirishdan iboratdir. Kichik biznesni yanada rivojlantirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, xalqimiz dunyoqarashini o'zgartirish, demokratik jamiyatni qaror to'tirish uchun asos yarata olamiz.

Jahondagi moliyaviy iqtisodiy inqiroz hamon barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'siriga qaramay mamlakatimizda iqtisodiyot yuqori sur'atlardagi o'sib bormoqda. Bu borada Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi"⁴.

Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarish ro'y bermoqda. Bugungi kunda sanoat korxonalari oldiga nafaqat ichki bozorni to'ldirish, balki eksport qilinadigan mahsulotlar sanoat korxonalarida va bu orqali jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish vazifalari o'rnatilmoqda. Shu bois, bozor iqtisodiyoti fanimizga, ongimizga yangi tushunchalar va iboralarni olib kirdi va olib kirmoqda.

⁴ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustivor vazifamizdir. 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2015 yil 17 yanvar. №11 (6194)

Shu tariqa xalqimizning ijtimoiy ongi, turmush tarzi va fanimiz tubdan o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Bir vaqtlar ko'pchilikka notanish so'zlar bugungi kunda hech kimga g'ayritabiiy tuyulmaydi. Tavakkalchilik yoki «Risk», «Riskni boshqarish» iqtisodiy kategoriya sifatida biz uchun nisbatan yangi tushunchalardan biri hisoblanadi.

Tavakkalchilik bu - tadbirkorning avval ko'rib chiqilgan bashorati (prognozi), faoliyat olib borish dasturida ko'rsatilganidan ko'ra ko'proq ko'riladigan zararlar, yoxud foydani kutilgan miqdordan oz olinishi kabi xavf bilan bog'liqdir.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini mohiyatini to'liq anglash uchun «xarajat», «zarar» kabi tushunchalarni farqlab olish kerak.

Yuqorida keltirilgan tavsiflar «tavakkalchilik» kategoriyasining sifatiy jihatini anglatga, shu bilan birgalikda «tadbirkorlik tavakkalchiligi»ning miqdoriy tomonlarini ham ko'rsatib o'tadi.

Tavakkalchilik absolyut holatda ijtimoiy zararlar hajmini material yoki pul ko'rinishida aks ettirishi mumkin bo'ladi.

Qiyosiy holatda esa tavakkalchilik sanoat korxonalarida korxonasining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi mulkiy yoki resurslarning umumiy sarfi, yoxud tadbirkorlikdan kutilayotgan daromad ko'rinishida aniqlanadi.

Korxonalarda tavakkalchilikning qiyosiy hajmini aniqlashda korxonaning asosiy fondlari va aylanma mablag'lari qiymatini yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlar; joriy xarajatlar, ka'ital qo'yilmalar yoki foydani olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taqqoslash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlarni kutilayotgan foyda, xarajat, tushum ko'rsatkichlari deb ataymiz. Hammamizga ma'lumki, bu ko'rsatkichlarning mohiyati biznes rejani ishlab chiqishda, tadbirkorlik loyihasi, tadbirkorlik shartnomalarini tuzish jarayonida, ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini asoslash davrida aniqlanadi.

Zararlar foydaning kutilayotgan hajmiga nisbatan kamayishi orqali aniqlanadi. Tadbirkorlik zararlari - bu birinchi navbatda tadbirkorlik foydasining kamayishi hisoblanadi.

Aynan shu kabi zararlar tadbirkorlik riski darajasini tavsiflaydi. Demak, riskni tahlil qilish birinchi navbatda zararlarni tahlil qilishdan boshlanadi.

Kutilmagan holatda yuzaga keladigan u yoki bu ehtimoliy zararlarni baholash yoki o'tash uchun eng avvalo tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq zararlar turini bilib olishimiz kerak bo'ladi. Bunda albatta, har bir zarar turlarini miqdoriy baholash va ularni bir qoli'ga tushira ola bilish zarur bo'ladi. Zararlarni bashorat (prognoz) qilish jarayonida ularni hisoblashdan avval, bir muhim vaziyatga alohida ahamiyat qaratish kerak, ya'ni tadbirkorlik faoliyatining borishiga va natijalariga ta'sir etuvchi voqealarning ehtimoliy rivojlanishi nafaqat katta miqdordagi resurslarni zararga olib kelishi mumkin, shu bilan birgalikda yakuniy natijani ham kamaytirib yuborishi mumkin bo'ladi.

Yana shuni unutmaslik kerakki, ehtimoliy voqealar bir turdagi resurslarning ortishiga va boshqa tur xarajatlarining kamayishiga, yohud bazi resurslar xarajatlarining ortishi barobarida, boshqa resurslardan iqtisod qilishga erishishiga sabab bo'lishi mumkin.

Agar ehtimoliy voqealar tadbirkorlik faoliyatining yakuniy natijasiga ikki taraflama, ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatsa, u holda riskni baholashda u va bu holatlarning darajasini ham hisobga olish kerak, boshqacha aytganda, ehtimoliy zarar yig'indisi aniqlanayotganda, tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyat sari olib boruvchi xarajatlarni ham hisobga olish talab etiladi.

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan zararlarni material, mehnat, moliyaviy vaqtning yo'qotilishi kabi zararlarning maxsus turlariga ajratish mumkin.

Material ko'rinishidagi zararlar, tadbirkorlik loyihalarida ko'zda tutilmagan qo'shimcha xarajatlar yoki energiya, xom ashyo, mahsulotlar, mulk, jihozlardan ko'riladigan zararlar ko'rinishida yuzaga keladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir zarar turlarining o'z o'lchov birliklari qabul qilingan. Material zararlari, hajmi o'lchov

birliklari, og'irlik birligi, hajm, maydon va boshqa o'lchov birliklarida o'lchanadi. Biroq, turli xil birliklarda o'lchanadigan ikki xil zararlarni bitta bir xil birlikda aks ettirish mumkin emas. SHuning uchun qiymat ko'rinishidagi zararlarni amaliyotda 'ul birligida aks ettiriladi. Buning uchun zararlarning jismoniy ko'rinishidagi o'lchami material resurslarini o'zining belgilangan bahosiga ko'paytirish yo'li bilan qiymat ko'rinishiga aylantiriladi. Qiymati avvaldan ma'lum bo'lgan material resurslar hajmini birdaniga pul ko'rinishida baholash mumkin.

Mehnat zararlari ehtimollik va kutilmagan holatlarni yuzaga keltiruvchi ish vaqti zararini o'zida aks ettiradi. Mehnat bo'yicha zararlarni kishi-soat, kishi-kun yoki ish vaqti soatlarida o'lchanadi.

Mehnat bo'yicha zararlarni qiymat, pul ko'rinishida aks ettirish ish soatlarini bir soatlik ish qiymatiga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy zararlarni - bu kutilmagan tarzda yuzaga keladigan to'lovlar, jarimalar, qo'shimcha soliqlarni to'lash, pul va qimmatli qog'ozlarning zarar bilan bog'liq pul ko'rinishidagi shaklidir. Ulardan tashqari, moliyaviy zararlarni ko'zlangan manbalardan pulni to'liq yoki umuman undirib ololmaslik yoxud xaridorlarning yetkazib berilgan, sotilgan mahsulotlar uchun pulni o'z vaqtida to'lay olmasligi natijasida mahsulot va xizmatlar bahosining pasayishi oqibatida foydaning kamayishi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'ladi.

Pul ko'rinishidagi zararlarni asosiy turlarining yuzaga kelishi inflyatsiya, valyuta kursining o'zgarishi, korxona mablag'larini qo'shimcha tarzda davlat byudjetiga undirib olish bilan bog'liqdir.


Yakunlovchi qaytarib olish mumkin bo'lmagan zarar vaqtinchalik moliyaviy zarar, hisob raqamlarni muzlatish, mablag'larni o'z vaqtida yetkazib bermaslik, qarzlarni to'lash muddatining uzaytirilishi oqibatida paydo bo'ladi.

Vaqt bo'yicha zararlarni sanoat korxonalarida faoliyati jarayonining belgilanganidan ko'ra sekin borishi natijasida yuzaga keladi. Bu kabi zararlarni belgilangan natijani kechikib olgan soat, kun, hafta, oylarda baholanadi. Yo'qotilgan vaqtning o'lchovini qiymat ko'rinishida tadbirkorlik faoliyatini

amalga oshirish jarayonidagi yo'qotilgan vaqt oralig'ida qanday foyda yoki daromad olinmagan bo'lsa, ushbu foyda yoki daromad birligi bilan o'lchanadi.

Zararlarning maxsus turi insonlar sog'ligi va hayotiga, atrof-muhitga, tadbirkor obro'siga yetkazilgan zarar, shuningdek, boshqa salbiy ijtimoiy va ma'naviy psixologik oqibatlar natijasida yuzaga keladi. Gohida barcha ma'lum tur zararlarni miqdoriy va qiymat ko'rinishida umuman aks ettirib bo'lmaydi. Darhaqiqat, har bir turdagi zararlarni ularning yuzaga kelish ehtimolligi va hajmini baholash, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan muddat, yil, oy va belgilangan muddatlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Riskni baholashda ehtimoliy zararlarning kompleks tahlilini o'tkazish uchun nafaqat risk manbaini belgilash, balki u qanday manbalardan ko'proq paydo bo'layotganligini ham yuzaga chiqarish muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida keltirilgan zararlar turini tahlil qilishda ehtimoliy zararlarni daraja bo'yicha birinchi va ikkinchi darajaga ajratib olish zarur. Tadbirkorlik risklarini aniqlashda ikkinchi darajali zararlar risk darajasini miqdoriy baholashda hisobga olinmasligi mumkin.



1-rasm. Sanoat korxonalarida tavakkalchilik turlari

Shuni ta'kidlash kerakki, oldindan tahlil qilish natijasida yuzaga keladigan zararlarning turli hajmi va ehtimolligi bo'yicha «saralash» imkoniyati yuzaga keladi.

Tavakkalchilikni baholashdan avval zararlarning tizimli tashkil etuvchilarini ehtimoliylaridan ajratib olish darkor.

Endi, tadbirkorlik turlari, sanoat korxonalarida, tijorat va moliyaviy tadbirkorlik bilan bog'liq bir nechta tizimli zararlarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqamiz va bu bilan riskni yuzaga keltiruvchi o'ta muhim omillarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin bo'ladi. Tavakkalchilik omillarini bilish ularning oldini olish choralarini ishlab chiqishga va kamaytirishga imkon beradi. Sanoat korxonalarida, tijorat, moliyaviy tadbirkorlikda ehtimoliy zararlarning paydo bo'lishini tahlil qilishga o'tishdan avval zararlarning bir nechta maxsus manbai va ularga ta'sir etuvchi omillar manbaini ko'rsatib o'tamiz. Bu manbalardan biriga siyosiy omillar ta'sirida yuzaga keladigan zararlarni kiritish mumkin. Bu kabi zararlar siyosiy riskni yuzaga keltiradi. U siyosiy voqealar natijasida kutilmaganda yuzaga keladigan muhim muhitni paydo qiladi va ortiqcha xarajatlarga olib boradigan xo'jalik faoliyatini taqozo qiladi.

Bu kabi riskning manbai bo'lib soliq me'yoringing ortib ketishi, shartnoma shartlarining o'zgarishi, mulk shaklining o'zgarishi, siyosiy vajlar bo'yicha mulk va pul mablag'idan ajralishlar hisoblanadi. Bu holatda zararlar hajmi va risk darajasini aniqlash juda qiyin kechadi.

Tadbirkor uchun hamkorlarning insofsizligi va to'lov qobiliyatiga ega emasligi natijasida keladigan zararlar muhim o'rin egallaydi.

Endi yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadbirkorlik turlari bo'yicha risklar va zararlar ehtimolini ko'rib chiqamiz:

1. Mehnat unumdorligining pasayishi oqibatida mahsulotlar sanoat korxonalarida va sotish hajmining belgilangan me'yoridan kamayishi, jihozlarning to'xtab turishi va sanoat korxonalarida quvvatlaridan to'liq foydalanilmaslik, ish vaqtidan zarar, boshlang'ich xom ashyoning yetarli bo'lmasligi, yuqori foizdagi

brak rejalashtirilgan tushumni ololmaslikda aks etadi. Ular qiymat ko'rinishida quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$D = \Delta O \cdot B \quad (1.1)$$

bu yerda:

ΔO - mahsulot sanoat korxonalarida hajmining ehtimoliy yig'indisi;

B - sotilgan mahsulot hajmining bahosi.

2. Sotishga mo'ljallanayotgan mahsulotning bahosi, sifatining pastligi, bozor konyunkturasining o'zgarishi, talabning tushib ketishi, bahodagi inflyatsiya ehtimoliy zararlarga olib keladi, uni ushbu formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta D = \Delta B \cdot O \quad (1.2)$$

bu yerda:

ΔB - birlik mahsulot hajmi bahosining kamayish ehtimoli;

O - sanoat korxonalaridaga va sotishga mo'ljallangan mahsulotning umumiy hajmi.

3. Xom ashyo, yoqilg'i, energiyaning ortiqcha sarflanishi ham zararlarga olib keladi, u quyidagi hisoblash formulasi orqali aniqlanadi:

$$\Delta D = \Delta M \cdot B_1 + \Delta M_2 \cdot B_2 \quad (1.3)$$

bu yerda:

ΔM - material resurslarining ehtimoliy sarfi;

B - birlik resurslar bahosi.

B. Tijorat tadbirkorligidagi zararlar:

1. Tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish jarayonida tovarni sotib olish qiymatining o'zgarishi va sotib olish haqidagi shartnoma shartlarining himoyalansizligi ham ehtimoliy zararlarga olib keladi, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta D = O \quad (1.4)$$

bu yerda:

O - jismoniy o'zgarishda bo'lgan tovarning sotib olingan hajmi;

ΔD - sotib olish bahosining oshish ehtimolligi.

2. Kutilmaganda sotib olish hajmining mo'ljaldagi hajmidan kamayib ketishi sotish hajmining kamayishiga olib keladi. Yo'qotilgan foyda sotilgan tovar hajmiga to'g'ri keluvchi sotib olish hajmining kamayishi orqali hisoblanadi.

Shuni hisobga olish kerakki, sotib olish va sotish hajmining kamayishi xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Tashish, saqlash jarayonida tovar sifati va iste'mol qiymatining zarari uning qiymatini pasayishiga olib keladi. Bu kabi zarar hajmi yo'qotilgan tovar miqdorini sotib olish bahosiga bo'lish yoki zararlangan hajmini uning qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Moliyaviy tadbirkorlik ham o'z mohiyati bo'yicha tijorat tadbirkorligi kabidir, faqat bu yerda tovar bo'lib pul, qimmatli qog'oz, valyuta hisoblanadi. Tijorat tadbirkorligiga xarakterli bo'lgan holatlar moliyaviy tadbirkorlikka ham xosdir.

Moliyaviy riskni baholashda to'lovga qobil emaslik pul, valyuta, qimmatli qog'ozlar kursining o'zgarishi, valyuta pul munosabatlari operatsiyalaridagi cheklanishlar omillarini hisobga olish kerak.

1.2. Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni boshqarish

O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoiti uning barqarorligini taminlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni taqozo etmoqda. Buning asosiy negizi iqtisodiy tizimni tubdan isloh qilish jarayonida yuzaga keladigan risklarni kamaytirish va uni erkinlashtirishdan iboratdir. Bu borada, ayniqsa, mamlakat hukumati tomonidan sanoat korxonalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov sanoat korxonalarida korxonalarini rivojlantirishning ahvoli va bu sohadagi olib borilayotgan ishlar haqida to'xtalar ekan, shunday deydilar: "Sanoat korxonalaridani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi.

Bu xususda gapirganda, 2011 yilda iqtisodiyotga jalb etiladigan barcha investitsiyalarning 36,4 foizdan ortig'ini sanoatni modernizatsiya qilish va

texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirish ko'zda tutilayotgani, zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari umumiy ka'ital qo'yilmalar hajmining kamida 46 foizini tashkil etayotganini qayd etish darkor"

Sanoat korxonalari tez o'zgaruvchan iqtisodiyotda boshqaruv sanatan foydalanishi va ularni qo'llash orqali faoliyatlarida yuzaga keladigan zarar va xavflarni oldindan ko'ra bilishi va baholay olishi birinchi galdagi vazifasiga aylanishi foydadan holi bo'lmas edi. Bugungi kun sharoiti mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqaruvchilardan o'z faoliyatlarini to'g'ri va samarali tashkil etishni, «yetti o'lchab, bir kesish»ni taqozo etmoqda. Ayniqsa, xususiy tadbirkorlar bu borada teranroq fikr yuritishlariga, chuqur mulohaza bilan ish yuritishlariga to'g'ri kelmoqda. Chunki ular tomonidan yo'l qo'yilgan kichik bir xato va xavfni ko'ra olmaslik, ularni inqirozga olib kelishi va oqibat natijada bor mol-mulki, mablag'laridan ajralib, bankrot holatiga olib kelishi mumkin. Barcha rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSHda tadbirkorlar sanoat korxonalaridani «tashkil qilish», «boshqarish» tushunchalari bilan bog'laydilar. Masalan: «mehnat unumdorligini boshqarish», «sifatni boshqarish», «narxni boshqarish». Ushbu tushunchalar bilan birgalikda rivojlangan mamlakatlar sanoat korxonalarida tadbirkorlar «risk», «riskni boshqarish» kabi boshqaruv turidan ham keng va samarali foydalanadilar.

«Risk» so'zi ingliz va rus tilida keng qo'llaniladigan so'z bo'lib, u iqtisodiyotda o'ziga xos talqinga ega. Hozirgi adabiyotlarda «riskni bosh-qarish» iqtisodiy kategoriya sifatida O'zbekiston fani uchun yangi tushunchalardan biri hisoblanadi.

Aslida «risk» so'zi grek so'zidan olingan bo'lib, u kemalarni halokatga olib boruvchi va odamlarning o'limiga, mol-mulklarining cho'kib ketishiga sababchi qoyani bildirib, «qoyalar orasidan shamol va boshqa to'siqlarga cha' berib suzib o'tmoq» ma'nosini anglatadi. S.Ushakov «risk» so'zini biror zarar yetkazish xavfi bo'lgan ta'lika yoki har qanday zarar yetkazish imkoni kabi tushunchalar bilan tariflaydi. Hozirgi kunda esa bu so'z «xavf ostida qolmoq», «xavf-xatar» degan yangi ma'noda qo'llanilmoqda. Riskni yuzaga keltiradigan ichki va tashqi omillar,

ya'ni hukumat qarorlari, inflyatsiyaning ortib borishi, soliq tizimining o'zgarishi, trans'ort kommunikatsiyasining buzilishi va tashqi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hodisa va voqealar ta'sirida kelib chiqadi.


«Tavakkalchilikni boshqarish» - bu boshqaruvning bir turi bo'lib, u yoki bu riskning yuzaga kelish ehtimoli, uning bahosi, ogohlantiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, zararlarni kamaytirish yoki ulardan qutulish yo'llarini aniqlashni bildiradi. Tavakkalchilikni boshqarish tizimining muhim tomoni riskni to'g'ri baholay olishdir. Bu ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar hajmini ob'yektiv tasavvur qilish, zararlarning oldini olish choralarini samarali belgilash uchun muhimdir. Risklarni boshqarish jarayoni 2 - rasmda ifodalangan boshqaruv sikli bosqichlari vazifalarini amalga oshirishni taqozo etadi. Tavakkalchilikni boshqarish jarayoni quyidagi boshqaruv sikli bosqichlari vazifalarini amalga oshirishni taqozo etadi.

I. Risklarni identifikatsiya qilish: risklar ro'yxatini, tasnifini va riskni yuzaga keltiruvchi hodisalarning mezonini shakllantirish va belgilab olish;

II. Risklarni baholash: risklarning ehtimollik darajasini miqdor va sifat jihatidan baholash; riskli hodisalarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash;

III. Risklarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish: riskli hodisalarni kamaytirish bo'yicha muqobilliklarni yaratish.

Risklarni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan tadbirlarni amalga oshirish: riskli hodisalar oqibatini kamaytirish; natijalarni baholash; hujjatlarni rasmiylashtirishdan iborat. Korxonalar har doim tavakkalchilik bilan to'qnash keladilar. Shuning uchun riskli hodisalarning yuzaga kelish sabablari ham juda ko'pdir. Odatda riskli hodisalarda keskin vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi holatlar tushuniladi. Bunday keskin vaziyatli holatlar manbai - xo'jalik faoliyati; tadbirkorning shaxsiy faoliyati; yakuniy natijalarga ta'sir qiluvchi tashqi muhit haqidagi axborotlarning yetishmasligi va hokazolar bo'lishi mumkin.



2-rasm .Tavakkalchilikni boshqarishning davriy bosqichlari


Tavakkalchilikni tasniflash asosida tadbirkorlar risklarni boshqarish jarayonini yanada samarali yo'lga qo'yishi mumkin bo'ladi. Chunki tasniflangandan so'ng qaysi risklar yuqori xavf-xatarni yuzaga keltiradi va qaysilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etishi aniqlanadi va shu asosda risklarni kamaytirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni amaliy ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni ichki va tashqi tavakkalchilikka bo'lish mumkin. Tashqi risklarning yuzaga kelish manbai bo'lib, tashqi muhit unsurlari hisoblanadi. Tadbirkor bu kabi tavakkalchilikka ta'sir eta olmasligi mumkin, ammo ularni o'z faoliyatida oldindan ko'ra olishi va hisobga ola bilishi kerak. SHuningdek tashqi tavakkalchilikka korxona faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tavakkalchilik kiradi. Bu kabi tavakkalchiliklarga tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiyotni boshqarish maqsadida tegishli qonunlarning qabul qilinishi yoki o'zgartirilishi, mamlakatdagi siyosiy o'zgarishlar, ijtimoiy va demografik vaziyatlarning o'zgarishi, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'zgarishlar, bozor muvozanatidagi o'zgarishlar kiradi. Bunga 1998 yilgi Sharqiy-Janubiy Osiyo

mamalakatlarda yuz bergan moliya-kredit tizimidagi xalqaro munosabatlarning buzilishi misol bo'ladi. Ichki tavakkalchilik manbai bo'lib, tadbirkorlik korxonasining ichki vaziyati va holatidagi hodisa va voqealar hisoblanadi. Bu kabi tavakkalchiliklarga menejment faoliyatining samarali amalga oshirilmaganligi, marketing asoslari va siyosatini noto'g'ri yuritish, firma xodimlarining suiste'mollikka yo'l qo'yishi, firmada kadrlar siyosatidagi xatoliklar, xom ashyoning yetishmasligi, sotish konyukturasining o'zgarishi, inflyatsiyaning ortib borishi kabilar kiradi (3-rasm).

So'nggi vaqtlarda mahalliy ishlab chiqaruvchi uchun valyuta tavakkalchilik dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Valyuta tavakkalchiligi - bu valyuta kursining o'zgarishi va inflyatsiya natijasida yuzaga keladigan moliyaviy zararlar ehtimolligi hisoblanadi. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi asosiy omillar orasidan to'lov balansi holatini, inflyatsiya darajasini, qisqa muddatli ka'itallarning tarmoqlararo migratsiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Shu bilan birgalikda valyuta kursining o'zgarishiga talab va taklif munosabatlari, tashqi va ichki siyosiy omillar ham ta'sir etadi. 1998 yildagi Rossiyadagi valyuta krizisi, AQSHdagi 2001 yil 11 sentabr voqealari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Sanoat korxonalarida korxonalar uchun yana bir muhim tavakkalchilik turlaridan biri kredit tavakkalchiligi hisoblanadi. Kredit tavakkalchiligi, firma faoliyatini tashqi mablag'lar asosida moliyalashtirish natijasida, investorlar oldidagi o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajara olmaslik imkoniyatlari bilan bog'liqdir.



3-rasm. Sanoat korxonalarida tavakkalchiligining ichki va tashqi omillari

Kredit tavakkalchiligi bilan kreditorlar: bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar; mol yetkazib beruvchilar va aksiyadorlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin. Kredit riskining yuzaga kelishiga sabab, kredit oluvchining insofsizligi, ya'ni mablag'larni o'z shaxsiy ehtiyojlariga yoki bo'lar-bo'lmas ishlarga sarflab yuborishi natijasida; kredit olgan korxonaning raqobatga dosh bera olmasligi; noxush iqtisodiy konyunktura; firma rahbarining omilkor emasligi, shuningdek, tadbirkorlar faoliyatiga moliyaviy, tarmoq, investitsion, innovatsion risklar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadbirkorlik risklarini boshqarish hozirgi sharoitda O'zbekistonda avj olib borayotgan kichik va xususiy biznes tadbirkorlari faoliyatini samarali, unumli boshqarish eng muhim, dolzarb muammo ekanligini hisobga olib, xalqaro huquqiy munosabatlarni va mamlakat ichidagi iqtisodiy-huquqiy asoslarni, milliy xususiyatlarni chuqur bilishlari va amalda qo'llashlari lozim bo'ladi. Buning uchun kerakli konsultatsiyalar olish - (maslahat beruvchi) kompaniyalardan va banklar qoshidagi hamda tovar ishlab chiqaruvchilar hamda tadbirkorlar palatasi qoshidagi mutaxassislar bilan maslahatlashishlari, kompyuter orqali «Internet» axborotlaridan foydalanish har bir tadbirkorning birinchi navbatdagi burchi bo'lib qolmog'i maqsadga muvofiqdir. Tadbirkor o'z faoliyatini samarali, xavf-xatarsiz amalga oshirishni boshqarar ekan, jahonda tez o'zgarib borayotgan iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni va mamlakat ichidagi o'zgaruvchanlik holatlarini har doim o'rganib borishi tadbirkorlik faoliyati uchun katta samara beradi.


1.3. Sanoat korxonalarida korxonalarida risklarni baholash

Tavakkalchilikni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy zararlar sifatida xarakterlash va o'lchash maqsadga muvofiqdir. Tavakkalchilikni baholashda uning har bir ehtimoliy zararlarini mutlaq yoki qiyosiy jihatdan baholash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ehtimolliklar egri chizig'ini qurish tavakkalchilikni baholashning boshlang'ich bosqichi bo'lishi mumkin. Bu egri chiziqni tadbirkorlikka tadbiiq etish o'ta murakkab vazifa hisoblanadi. Shuning uchun tavakkalchilikning bir nechta asosiy ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz. Shu maqsadda zarar hajmiga bog'liq ravishda tavakkalchilikni hududlariga ajratib olamiz (4 - rasm).

Riskka yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan hududda tadbirkorlik faoliyati o'zining iqtisodiy holatini saqlab qoladi. Bu hududda zararlar mavjud, ammo ular kutilayotgan foyda hajmidan kam bo'ladi.

Riskka yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan hudud chegarasida zararlar darajasi tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan foydaga teng bo'ladi.

Keyingi o'ta xavfli muhitni jiddiy risk hududi deb ataymiz. Bu hududda ehtimoliy zararlar kutilayotgan foyda hajmidan yuqori bo'ladi. Tadbirkor yakuniy holatda nafaqat daromadga erisha olmaydi, balki barcha xarajatlari miqdoridan ham yuqori zarar ko'radi.



Zarar kutilmaydigan muhitni risksiz hudud deb ataymiz. Ushbu hududda hech qanday zararlar kutilmaydi.

Jiddiy riskdan ko'ra, o'ta fojeali risk hududini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. U o'zining hajmi, bo'yicha kritik darajadan ortadi, tadbirkorlikning mulkiy holatiga teng bo'ladi. Fojeali risk faoliyati oqibatida korxona bankrotga uchraydi, uni yopishga va mol-mulkini sotishga olib keladi.

Risk haqidagi to'liq ma'lumotni ehtimoliy yo'qotishlar taqsimoti egri chizig'i yoki ehtimoliy zararlarining grafik tasviri ko'rsatib beradi.

Ehtimoliy zararlar egri chizig'ini shakllantirish uchun foydaga ehtimoliy hajm sifatida qaraymiz va ehtimolliklarni taqsimlash egri chizig'ini olinadigan foyda darajasiga bog'liq ravishda quramiz.

Olinayotgan foydaning ehtimoliy taqsimoti egri chizig'ini qurishda quyidagilarni inobatga olamiz:

1. Olinayotgan foyda ehtimolligi hisobiy foyda hajmiga teng. Bu kabi ehtimoliy foydani (V_r) olish maksimal darajada, (F_r) ning qiymatini kutilayotgan foydaning matematik ifodasi orqali hisoblash mumkin.

2. Zararlar foyda (ΔF) ning kamayishini foydaning hisobiy hajmi F_r bilan solishtirish orqali hisoblanadi. Agar real foyda F ga teng bo'lsa, u holda,

$$F = F_r - \Delta F \quad (1.5)$$

bunda:

ΔF - foydaning kamayishi ,

F_r - hisoblanadigan foyda

$$\Delta F = F_r - F \quad (1.6)$$

1. Amaliyotda katta hajmdagi zarar ehtimolligi nolga teng

Albatta riskning qaysidir darajasini qabul qilish murakkab jarayon, chunki ular barcha tur risklar uchun muvofiq kelmasligi mumkin. Ammo ular tadbirkorlik risklarining o'zgarish qonuniyatlarini to'g'ri aks ettiradi va gipotezaga asoslanadi.


Foyda olish ehtimolligi egri chizig'idan kelib chiqib, foydani ehtimoliy zararlar taqsimotining egri chizig'ini quramiz. (1.6. – rasm)

Foydaning ehtimoliy zararlar taqsimoti egri chizig'ida aks ettirilgan bir qator xarakterli nuqtalarni ajratib ko'rsatamiz.

Birinchi nuqta ($\Delta F=0$ va $V=V_r$) foydaning zarar ehtimolligi nolga teng ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchi nuqta ($\Delta F=F_r$ va $V=V_d$) ehtimoliy zararlar hajmi kutilayotgan foydaga teng ekanligini xarakterlaydi.

1- va 2 - nuqtalar yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk hududi holatini aniqlovchi chegaraviy nuqtalar hisoblanadi.



Foydaning ehtimoliy zararlar taqsimoti egri chizig'i

Uchinchi nuqta ($\Delta F = VR$ va $V = V_{kr}$) zararlar hajmi muvofiq ravishda V_r tushumga teng ekanini ko'rsatadi. Bu kabi zararlar ehtimolligi V_{kr} ga teng.

2 va 3 - nuqtalar jiddiy risk hududi chegarasini aniqlaydi.

4 - nuqta ($\Delta f = IS$ va $V = V_{kt}$) tadbirkorning mulkiy holatiga teng bo'lgan zararlarni xarakterlaydi, uning ehtimolligi V_{kr} ga teng.

3 va 4 - nuqtalarda fojiali risk hududi joylashadi.

Tadbirkorning mulkiy holatidan oshib tushadigan zararlar ko'rib chiqilmaydi va ularni talab qilish mumkin emas. Kutilayotgan risk haqida mulohaza yuritishga imkon beruvchi zararlar egri chizig'i muhim ko'rsatkich hisoblanadi, shuning uchun qurilgan egri chiziqni risk egri chizig'i deb atash ham mumkin.

Masalan, agar fojiali zararlar ehtimolligi ko'rsatkichi o'ta yuqori xavf haqida ma'lumot bersa, ehtiyotkor tadbirkor bu kabi ishdan voz kechadi va riskka bormaydi.

Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatida riskni baholash jarayonida risk ehtimolligi egri chizig'ining hamma nuqtasini qurish shart emas, balki to'rtta xarakterli nuqtani qurib olish, bu riskni baholashni muvaffaqiyatli amalga oshirilganidan darak beradi.

Risk ko'rsatkichlari - V_r, V_{kr}, V_d, V_{kt} larni bilish tadbirkorlik to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishga imkon beradi. Ammo tadbirkorlik qarorlarini baholash uchun riskning ko'rsatkichlarini baholash yetarli emas.

Tadbirkor risk ko'rsatkichlarini belgilashda quyidagi parametr mohiyatiga ahamiyat qaratmaqsadga muvofiq bo'ladi.

Unga ko'ra $K_d = K_{kr} = 0,01$, $K_{kt} = 0,001$ bu ko'rsatkichlarni tadbirkorlik risklarini tahlil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan riskning chegaraviy nuqtasini umumiy shartlari sifatida qabul qilamiz.

A. Risk ko'rsatkichidan ortib ketmasligi kerak.

B. Jiddiy risk ko'rsatkichi hajmidan kichik bo'lishi kerak.

V. Fojiali risk darajasidan yuqori bo'lmasligi kerak.

SHu bilan birgalikda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun qarorlar qabul qilishda risk elementlarini hisobga olish zarurati

ham ortib boradi. Qarorni qabul qilish uchun har bir loyiha qanday xarakterga ega ekanligi, xavf-xatar mezonlarida qanday ko'rsatichlardan foydalanganligiga ham etibor qaratiladi. Eng yaxshi loyihani asoslashni kutilayotgan foydaning matritsali tahlili asosida amalga oshirish mumkin. Risk asosidagi loyiha T_i bo'yicha kutilayotgan foydaning matematik ifodasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$T_i = \sum_{i=1}^m S_i \cdot E_i \quad (1.7)$$

bu yerda:

S_i - i yildagi iqtisodiy samaradorlik,

E_i - i yildagi iqtisodiy samaradorlikka erishish ehtimolligi.

Kutilayotgan foydaning chetlanish ehtimolligini hisoblash uchun kelgusi foydaning taqsimlanish dis'ersiyasidan foydalaniladi. Har bir loyiha uchun dispersiya quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$$D_i^2 = \sum_{i=1}^m E_i (S_i - T_i)^2 \quad (1.8)$$

bu yerda:

D_i^2 - loyiha bo'yicha foydaning taqsimlanish dispersiyasi, $i = 1, 2, 3, \dots, n$

Standart chetlanish Q_i quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Q_i = \sqrt{\sum_{i=1}^m E_i (S_i - T_i)^2} \quad (1.9)$$

bu yerda:

Q_i - i loyiha bo'yicha foydadan o'rtacha kvadratik chetlanish,

Endi yuqoridagi fikrlarimizni quyidagi misol yordamida asoslaymiz.

Korxonada uchta investitsion loyiha mavjud va ularning 10 yil davomidagi S_i - i yildagi iqtisodiy samaradorligi, E_i - i yildagi iqtisodiy samaradorlikka erishish ehtimolligi jadvalda keltirilgan (1 - jadval)

**Investitsion loyihalarni iqtisodiy samaradorlikka
erishish ehtimolligi**

Loyiha	1-y	2-y	3-y	4-y	Kutilay otgan foyda	Xavf- xatar
indeksi	E₁=0,4	E₂=0,1	E₃=0,2	E₄=0,3		
1	50	40	130	30	59	36,45
2	40	50	150	20	57	47,55
3	70	60	130	10	63	41,96

1, 2, 3 - loyihalar bo'yicha kutilayotgan foyda (1) formuladan foydalanib topiladi.

$$T_1 = 50 \cdot 0,4 + 40 \cdot 0,1 + 130 \cdot 0,2 + 30 \cdot 0,3 = 59$$

$$T_2 = 40 \cdot 0,4 + 50 \cdot 0,1 + 150 \cdot 0,2 + 20 \cdot 0,3 = 57$$

$$T_3 = 70 \cdot 0,4 + 60 \cdot 0,1 + 130 \cdot 0,2 + 10 \cdot 0,3 = 63$$

1-2-3-loyihalar uchun xavf-xatar ahamiyati (2) formuladan foydalanib aniqlanadi.

$$T_1 = 50 \cdot 0,4 + 40 \cdot 0,1 + 130 \cdot 0,2 + 30 \cdot 0,3 = 59$$

$$T_2 = 40 \cdot 0,4 + 50 \cdot 0,1 + 150 \cdot 0,2 + 20 \cdot 0,3 = 57$$

$$T_3 = 70 \cdot 0,4 + 60 \cdot 0,1 + 130 \cdot 0,2 + 10 \cdot 0,3 = 63$$


Loyihalarning xavf-xatar ahamiyati dispersiya orqali aniqlanadi:

$$D_1^2 = \sqrt{1359} = 36,45$$

$$D_2^2 = \sqrt{2261} = 47,55$$

$$D_3^2 = \sqrt{1760} = 41,96$$

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni grafik ko'rinishida quyidagicha aks ettirish mumkin.



6- rasm. Sanoat korxonalaridagi joriy etilayotgan loyihalarning kutilayotgan foydaliligi va ularning xavf darajasi

Grafik va hisob kitob natijalaridan ko'rinib turibdiki, sanoat korxonalaridagi 1 - loyihani kiritishdan kutiladigan foyda darajasi yuqori, xavf-xatar darajasi ancha pastdir. Demak, dispersiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu loyiha o'ta riskli hisoblanadi.

II BOB. NAMANGAN VILOYATI SANOAT KORXONALARIDA TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISH MASALALARI IQTISODIY TAHLILI

2.1. Namangan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat korxonalarining o'рни

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlari» bo'yicha vazifalarni amalga oshirilishi, shuningdek, Xukumat tomonidan qabul qarorlar va dasturlarda belgilangan parametrlarni viloyatda ijrosini ta'minlanishi hisobiga 2015 yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan iqtisodiyotning barcha sohalarida barqaror o'sish sur'atlari ta'minlandi.

Xususan, iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish va ko'lamlarini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zarur ishbilarmonlik muhitini yaratish, aholining hayot darajasi va sifati izchil oshirilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida hisobot davrida yalpi hududiy mahsulot hajmining (YAHM) o'sish sur'ati 10,3 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 12,5 foizga, qishloq xo'jaligi 8,5 foizga, kapital qo'yilmalar 34,3 foizga, qurilish ishlari 11,0 foiz, chakana savdo aylanmasi 12,9 foiz va pullik xizmat ko'rsatish hajmi 17,7 foizga o'sishi ta'minlandi.

Mazkur qarorga asosan viloyatda 2014 yil davomida 1524,5 mlrd.so'mlik kapital qo'yilmalar shundan, 14,7 mlrd.so'm byudjet mablag'lari, 1,3 mlrd.so'm mahalliy byudjet mablag'lari, 108,5 mlrd.so'm byudjetdan tashqari fond mablag'lari, 150,9 mlrd.so'm hukumat kafolatidagi xorijiy investitsiya va kreditlari, 361,4 mlrd.so'm O'zbekiston Respublikasi RRQJ mablag'lari, 256,8 mlrd.so'm korxona va tashkilot mablag'lari, 235,6 mlrd.so'm bank krediti mablag'lari, 321,8 mlrd.so'm aholi va xususiy shaxslar mablag'lari hamda 56,1 mlrd.so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi belgilangan.

Hisobot yakunida barcha manbalar hisobidan 1620,0 mlrd.so'm miqdorida investitsiya o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,3 punktga ko'p

jalb etilishi ta'minlandi. Shu davrda 928,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 111,0 foizni tashkil etdi (prognoz 110,9%).

Shu bilan birga, viloyatda qishloq xo'jaligi maydonlarida sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi hisobidan yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan 19 ta tik drenaj meliorativ quduqlarni hamda 4 ta ob'yektlarda kollektor va drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va bu maqsadlarga 4483,0 mln.so'm miqdorida mablag'lar sarflanishi ishlari rejalashtirilgan.

2-jadval

Namangan viloyatida Yalpi hududiy mahsulot tarkibi

Ko'rsatkichlar	2013 yil			2014 yil			2015 yil		
	hajmi mlrd. so'm	o'sish, %	Struktura, %	hajmi mlrd. so'm	o'sish, %	struktura, %	hajmi mlrd. so'm	o'sish, %	struktura, %
Yalpi hududiy mahsulot	4969,4	111,2	100,0	6073,3	110,3	100,0	7154,0	108,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>									
Sanoat ishlab chiqarish	538,9	108,4	10,8	648,3	108,4	10,7	941,7	108,4	13,2
Qurilish	349,0	116,1	7,0	469,8	111,0	7,7	566,4	111,0	7,9
Qishloq xo'jaligi	1826,5	108,9	36,8	2154,9	108,5	35,5	2359,1	108,5	33,0
Transport va aloqa	443,9	107,0	8,9	538,0	110,1	8,9	600,1	110,1	8,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	443,4	114,5	8,9	582,1	112,3	9,6	677,4	112,3	9,5
Soliqlar	159,2	111,9	3,2	186,6	111,0	3,1	231,8	111,0	3,2
Boshqalar	1208,6	114,5	24,3	1493,5	112,7	24,6	1777,5	112,7	24,8
<i>shu jumladan;</i>									
YaHM dagi kichik biznesning ulushi	X	x	79,5	x	x	79,7	X	x	80,2
YaHM dagi xizmatlar ulushi	X	x	42,2	x	x	43,1	X	x	42,6

2014 yil yakuni bilan ob'yektlarda 4,5 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, barcha ob'yektlar ishga tushirildi. Shuningdek, barcha manbalar hisobidan 1025,0 ming kv.m. turar-joy, 209,0 km ichimlik suvi va 75,2 km tabiiy gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2069 sonli qarori asosida viloyat hokimining 2014 yil 11 yanvardagi "Namangan viloyatining 2014 yil Hududiy investitsiya dasturi to'g'risida"gi 11-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorga asosan markazlashgan investitsiyalar hisobidan 1,3 mlrd.so'm, nomarkazlashgan investitsiyalar hisobidan 368,1 mlrd.so'm jami 369,4 mlrd.so'm miqdorida kapital mablag'lar o'zlashtirilishi rejalashtirilgan.

Jumladan, 1,3 mlrd.so'm byudjet, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan 161,6 mlrd.so'm, bank krediti mablag'lari hisobidan

160,9 mlrd.so'm, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan 35,3 mlrd.so'm hajmida investitsiya jalb etilishi ko'zda tutilgan.

Yil yakuni bilan 14,8 mlrd.so'm mahalliy byudjet, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan 178,0 mlrd.so'm, bank krediti mablag'lari hisobidan 133,3 mlrd.so'm, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan 31,5 mlrd.so'm xamda boshqa manbalar hisobidan 13,7 mlrd.so'm jami 371,3 mlrd.so'm miqdorida kapital mablag'lar o'zlashtirildi.

Mazkur qarorga asosan, sanoatni rivojlantirish bo'yicha 392 ta, qishloq xo'jaligini rivojlantirish sohasida 363 ta, xizmat va servisni rivojlantirish sohasida 592 ta, ijtimoiy soha ob'yektlaridan 36 ta hamda boshqa sohalarni rivojlantirish borasida 13 ta, jami 1396 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirildi. Bu ishlar natijasida 11,2 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, aholiga zamonaviy va sifatli xizmat ko'rsatish sohasida ham sezilarli ishlar olib borilmoqda. 2014 yil yakuni bilan 592 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari foydalanishga topshirildi. Bu ishlarga

50,0 mlrd.so'mdan ortiq kapital mablag'lar sarflandi. Natijada 2,2 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

2014 yil yakuni bilan 392 ta ishlab chiqarish ob'yektlari foydalanishga topshirildi. Ushbu loyihalarda jami 124,9 mlrd.so'm (70,3 mlrd.so'm o'z mablag'i, 54,4 mlrd.so'm bank krediti, 0,2 mlrd.so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya) miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, 7200 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Jumladan, Namangan shahrida 139 ta, Mingbuloq tumanida 8 ta, Kosonsoy tumanida 18 ta, Namangan tumanida 34 ta, Norin tumanida 17 ta, Pop tumanida 13 ta, To'raqo'rg'on tumanida 29 ta, Uychi tumanida 17 ta, Uchqo'rg'on tumanida

37 ta, Chortoq tumanida 22 ta, Chust tumanida 36 ta va Yangiqo'rg'on tumanida 22 ta ishlab chiqarish loyihalari foydalanishga topshirildi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi sohasida yil yakuni bilan 363 ta loyihalar to'la amalga oshirilib foydalanishga topshirildi. Ushbu loyihalarda jami 40,4 mlrd.so'm (19,3 mlrd.so'm o'z mablag'lari, 21,1 mlrd.so'm bank krediti) miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, 1739 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Hududiy investitsiya dasturiga asosan 2014 yilda 12 ta asosiy va 6 ta ustivor loyihalar bo'yicha 16,3 mln.dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi ko'zda tutilgan. Xisobot yakuni bilan amalda dastur doirasidagi hamda qo'shimcha loyihalar bilan birgalikda 16,6 mln.dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etildi.

2015 yilning 1 oktyabr holatiga viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 64 tani tashkil etib, qo'shma korxonalarning 52 tasi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 3 tasi savdo va xizmat ko'rsatish sohasida, 3 tasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga, 2 tasi telekommunikatsiya, 3 tasi qurilish materiallarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va 1 tasi farmatsevtika sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Hisobot davrida viloyatdagi qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 403,2 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,4 foizga ortib, mintaqada ishlab chiqarilgan jami mahsulotlardagi ulushi 49,5 foizga yetdi (2013 yilda 48,8 foiz).

Hisobot davrida qo'shma korxonalarning eksport hajmi 42,7 mln. dollarni tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 116,2 foizga o'sdi yoki viloyat jami eksportdagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 bandga ortib 37,5 foizga yetdi.

Qo'shma korxonalarning import hajmi 75,8 mln.dollarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 101,6 foizga ortishi ta'minlandi.

3-jadval

Namangan viloyatida tashkil etilgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2014 y. yakuni, haqiqatda	2015yil yakuni		2013 y. yakuniga nisbatan %da
			prognoz	haqiqatda	
Ro'yxatdan o'tgan xorijiy investitsiya asosida tashkil etilgan korxonalar soni	birlik	63,0	64,0	64,0	101,6
shu jumladan:					
faoliyat yuritayotganlar	birlik	58,0	60,0	60,0	103,4
vaqtincha ishlamayotganlar	birlik	5,0	4,0	4,0	80,0
tashkil etilayotganlar	birlik	2,0	1,0	2,0	100,0
Butunlay faoliyatini to'xtatganlar	birlik	5,0	4,0	5,0	100,0
Ishlab chiqarish hajmi, xizmat va ish	mln.so'm	375600,0	400000,0	403246,0	107,4
Mintaqada jami ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ulushi	%	48,8	49,0	49,5	x
Eksport hajmi	ming \$	45367,2	48000,0	48792,6	107,6
Mintaqa jami eksportiga nisbatan ulushi	%	41,5	42,5	43,3	x
Import hajmi	ming \$	74652,0	75000,0	75862,4	101,6

Jumladan, Namangan tumanidagi "AISHA HOME TEXTILE" QKda 1379,3 ming dollar, "SOLAR ENERGY GRAND" QKda 105,0 ming dollar, "VOLNA EKO" QKda 52,5 ming dollar, Namangan shahridagi "PURE LINE LUX" QKda 282,1 ming dollar, "AVTO PLAST PART" QKda 160,1 ming dollar, Uychi tumanidagi "VODIY IPAK GILAMI" QKda 80,0 ming dollar, To'raqo'rg'on tumanidagi "FT TEXTILE GROUP" HKda 807,8 ming dollar, Uchqo'rg'on tumanidagi "UCHKURGAN TEXTILE" QKda 4656,2 ming dollar, Yangiqo'rg'on tumanidagi "NATURAL JUICE" MCHJda 63,4 ming dollar hamda 8 ta qo'shimcha loyihalar doirasida 9,0 mln.dollar jami 16,6 mln.dollar miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

4-jadval

Namangan viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari

№	Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2014 y. yakuni, haqiqatda	2015 yil yakuni		2013 y. yakuniga nisbatan %da
				prognoz	haqiqatda	
1.	Tashqi savdo aylanmasi – jami	ming \$	263806,2	272000,0	276626,0	104,9
2.	Eksport	- " -	102506,2	110000,0	112716,0	110,0
3.	Import	- " -	161300,0	162000,0	163910,0	101,6
4.	Koldik	- " -	-40236,0	-28700,0	-50593,0	x
5.	Eksport tarkibi	ming \$	102506,2	110000,0	112716,0	110,0
6.	- paxta tolasi	ming \$	7569,4	12000,0	7982,0	105,5
7.	- kimyo sanoati mahsulotlari	- " -	581,8	600,0	623,3	107,1
8.	- qora va rangli metallar	- " -	154,5	200,0	224,3	145,2
9.	- mashina va uskunalar	- " -	332,5	300,0	480,5	144,5
10.	- oziq-ovqat mahsulotlari	- " -	13618,0	12500,0	15236,0	111,9
11.	- energiya resurslari	- " -	120,9	200,0	200,2	165,6
12.	- xizmatlar	- " -	9067,0	8500,0	12106,0	133,5
13.	- boshqalar	- " -	71062,1	75700,0	75863,7	106,8
14.	Import tarkibi	ming \$	161300,0	162000,0	163910,0	101,6
15.	- oziq-ovqat mahsulotlari	ming \$	17555,7	20000,0	22721,7	101,9
16.	- kimyo sanoati mahsulotlari	- " -	26650,9	26000,0	28657,5	107,5
17.	- qora va rangli metallar	- " -	5707,8	6000,0	6354,8	111,3
18.	- mashina va uskunalar	- " -	39935,5	42000,0	44567,7	111,6
19.	- energiya resurslari	- " -	194,4	250,0	299,6	154,1
20.	- xizmatlar	- " -	85,2	1500,0	1663,4	19,5 m.
21.	- boshqalar	- " -	71170,5	66250,0	59645,3	101,5

Viloyatda 2015 yil yakuni bilan 346,7 mln. dollarlik (2013 yilning mos davriga nisbatan 123,8%) tashqi savdo amallari bajarilib, shundan eksport 146,2 mln.dollarni (130,9%), import 200,5 mln. dollarni (119,0%) tashkil etdi.

Hududiy eksport dasturiga asosan eksportyor korxonalar tomonidan o'tgan davr mobaynida 71,0 mln.dollar qiymatida mahsulot eksport qilinib, o'sish surati 2013 yilning mos davriga nisbatan 169,1 foizga, belgilangan prognozga nisbatan esa 138,5 foizga bajarilishi ta'minlandi.

Jumladan “Samo tekstil servis” MCHJda 2123,0 ming dollar (108,9%), “Lyuks plyus servis” MCHJ 204,7 ming dollar (141,1 %), “Tubo tekstil” MCHJ 385,8 ming dollar (184,6%), “A'zam teks savdo servis” MCHJ 382,9 ming dollar

(127,6%), “Chartak Dayxan tekstil” MCHJda 506,4 ming dollar (144,7%) korxonalari tomonidan eksport prognozi ortig‘i bilan bajarilgan.

Viloyatda eksport faoliyatini yurituvchi korxonalarning safi barqaror o‘tib bormoqda. 2014 yilda eksport amallarini bajaruvchi korxonalar soni 112 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2014 yil yakuni bilan ularning soni 36 taga ortib, 148 tani tashkil etgan.

Hisobot davrida viloyatdagi eksportyor korxonalar soni ortishi bilan bir qatorda yangi turdagi mahsulotlarni eksportga chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, 2014 yildan boshlab viloyatdagi “Nam lider lityo servis” MCHJda (44,9 ming dollar) alyumin profillar, “Ironlit” MCHJda pechlar uchun temir kolonnalar (20,4 ming dollar), “Rost Sroy Invest” MCHJda (564,2 ming dollar) gips maxsulotlari, “Golden Ring” XKda maxsus kiyim kechaklar (27,9 ming dollar) va “Natural Djus” MCHJda (495,1 ming dollar) tomat pastasi, “Namsib Agrobiznes” QKda bodom, yong‘oq urug‘idan yog‘ (15,8 ming dollar) kabi yangi turdagi mahsulotlarni eksportga chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Viloyat eksport tarkibini tahlil etilganda, jami eksportning 7,1 foizini paxta tolasi, 13,5 foizini oziq-ovqat mahsulotlari, 10,7 foizini xizmatlar, 0,6 foizi ximiya maxsulotlari, 0,4 foizi mashina va uskunalar, 0,2 foizi qora va rangli metallar hamda 67,3 foizini boshqa mahsulotlar tashkil etdi.

Hisobot davridagi importning 27,2 foizini mashina va uskunalar, 17,5 foizini kimyo sanoati mahsulotlari, 13,9 foizini oziq-ovqat mahsulotlari, 3,9 foizini qora va rangli metallar, 1,0 foizini xizmatlar, 0,2 foizini energiya resurslari va 36,4 foizi boshqa turdagi mahsulotlardir.

Eksport geografiyasi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda viloyatdagi yirik va kichik korxonalar tomonidan dunyoning 67 ta davlatiga tovar va xizmatlarni eksportga chiqarish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, birginina shu yilning o‘zida Chexiya, Braziliya, Finlandiya, Malayziya, Misr, Daniya kabi 6 ta yangi davlatlarga mahsulotlarni eksport qilish yo‘lga qo‘yildi.

2.2. Namangan viloyati sanoat korxonalarida tavakkalchilikni kamaytirish tahlili

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy davlatlarda filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Filial va vakolatxonalar boshqaruvi jamiyat tomonidan tayinlangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va ular jamiyat bergan ishonchnoma asosida ish ko'radi.

Chiqariladigan aksiyalarning xillari, ularni tarqatish va joylashtirish, ular bo'yicha dividendlarni to'lash tartibini har bir aksiyadorlik jamiyati o'zining ustaviga asosan amalga oshiradi. Ilovada keltirilgan Namangan shahri faoliyat ko'rsatuvchi "Mexmash" ochiq aksiyadorlik jamiyatining emissiyasi risolasidan ko'rinadiki korxonaning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- Xalk iste'mol mollarini ishlab chiqarish;
- Maxsus uskunalarni konstruktorlik va texnologik ishlarni bajarish;
- Avtomobil transportlariga yonilg'i quyish, moy almashtirish hamda avtomobillarni yuvish shaxobchalarini tashkil etish va chakana savdosini amalga oshirish;
- Neft va neft maxsulotlarini ulgurji sotish;
- Gazda yuridik avtomobil transportlariga xizmat ko'rsatadigan "Avtomobillarga gaz quyish shaxobchalari"ni tashkil etish va chakana savdosini amalga oshirish;
- Chet el, MDH davlatlari va Respublikada ishlab chiqarilgan dori-darmonlar ulgurji va chakana savdosini tashkil etish, dori-darmon vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va sotish;
- Tibbiyot texnika buyumlarini ulgurji va chakana savdosini tashkil etish;
- Ulgurji va chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanish;
- Savdo-xarid, tijorat va vositachilik ishlarni bajarish;
- Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish;

- Ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Qurilish maxsulotlarini ishlab chiqarish, olib kelish va sotish;
- Umumiy ovqatlanish shahobchalarini tashkil qilish, muzqaymoq va salqin ichimliklarni ishlab chiqarish va sotish, non va non maxsulotlarini, konditer maxsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;
- Umumiy qurilish, qurilish ta'mirlash, santexnika, elektr-montaj ishlarini amalga oshirish;
- Avtotransport yordamida aholi va tashkilotlarga yuk, yo'lovchi tashish xizmatlarini ko'rsatish, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, ehtiyot qismlarini olib kelish va sotish;
- Kompyuterda dasturlar tuzish, turli xizmatlar ko'rsatish, nusxa ko'chirish va ko'paytirish, orgtexnikalarni olib kelish va sotish, sozlash ta'mirlash hamda o'rnatish xizmatlarini ko'rsatish;
- Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish;
- Chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanish, ularning maxsulotini yetishtirish, qayta ishlash va sotish;
- Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish;

“Mexmash” OAJ sanoati korxonasi tomonidan korxonani moliyalashtirish maqsadida avvalgi chiqarilgan qimmatli qog'ozlar to'g'risida va xar bir chiqariluv bo'yicha ma'lumotlar quyidagicha:

5-jadval

“Mexmash” OAJ sanoati korxonasi tomonidan korxonani moliyalashtirish maqsadida chiqarilgan aksiyalar to'g'risida ma'lumot

Ko'rsatkich	1 emissiya	2 emissiya	3 emissiya	4 emissiya
Aksiyalar soni, dona	136 353	136 353	500 000	4 250 000
Nominal qiymati	200 so'm	200 so'm	200 so'm	200 so'm
Nominal qiymati bo'yicha chiqaruv xajmi, so'm	27270600	27270600	100000000	850000000
Aksiya shakli	Egasi yozilgan oddiy aksiya			

Aksiyalar xillari bo'yicha egasi yozilgan va egasi yozilmagan aksiyalarga, toifalari bo'yicha esa oddiy va imtiyozli aksiyalarga bo'linadi.

Egasi yozilgan aksiyada aksiya egasining nomi qayd etilgan bo'ladi. Aksiyaning egasi o'zgargan taqirda aksiyaga uning yangi egasi nomi yozilishi lozim. Shu bilan birga "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunning 24-moddasi egasi yozilgan aksiyaning egasi o'zgarganda aksiyadorlar reestrda tegishli o'zgarish qilinishini talab etadi, chunki egasi yozilgan aksiyalarning egalari (jismoniy va yuridik shaxslar) aksiyadorlar reestrda qayd etilgan bo'lishi lozim, shu holdagina aksiyaga egalik tan olinadi.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy davlatlarda filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Filial va vakolatxonalar boshqaruvi jamiyat tomonidan tayinlangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va ular jamiyat bergan ishonchnoma asosida ish ko'radi.

Korxonadagi 1-ishlab chiqarishdagi faoliyat, mavjud dastgoxlarning xolati, xom ashyolarni sotib olish darajasi va korxona mahsulotlari narxlarining raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari nisbatan zaif tomonlar ekanligi aniqlandi. Korxonada amalga oshiriladigan tadbirlar va ilmiy izlanishlar mana shu tomonlarga yo'naltirilishi lozim. 1-ishlab chiqarishdagi xolat dastgoxlarning jismoniy eskirgani natijasida kelib chiqqan bo'lib, uning natijasida mahsulot tannarxi ortib ketgan va narxni raqobatbardoshligi tushib ketgan. Demak, korxona rahbariyati va iqtisodchilari oldida turgan eng dolzarb masala – mavjud dastgoxlarni yangi, yuqori unumli va kam sarf-harajat talab etadiganlarini topish hamda ularni jadal tarzda ishlab chiqarishda qo'llashdir. Korxonaning eng muhim qator ko'rsatkichlari, shu jumladan, mahsulot sifati, ishlab chiqarishning xolati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, mahsulot sotish kanallari, bozor izlanishlari, korxonaning texnik imkoniyatlari, yangi mahsulot innovatsiyasi, boshqaruv faoliyati, moliyaviy resurslardan foydalanish singari ko'rsatkichlar va ular asosidagi yo'nalishlarda o'rta darajada faoliyat yuritilmoqda. Bu sohalarda

ham izlanishlar olib borish hamda ahvolni yaxshilashga doir tadbirlar tuzish va ularni tezda joriy qilish ishlarini olib borish lozim.

Ushbu xolatlarning sabablarini aniqlash maqsadida korxonadagi moliyaviy natijalarni tahlil qilamiz va uning o'tgan davrdagi dinamikasini o'rganamiz.

6-jadval

«Mexmash»AJning moliyaviy natijalari

Ko'rsatkichlar nomi	2012	2013	2014	2015	2016
Mahsulot sotishdan sof tushum	18497463	21432472	23424761	33064635	30459452
Soliq to'laguncha foyda	2125303	2530354	3035487	6819987	1651549
Daromad solig'i	1101543	1288444	1388844	1974377	1523345
Sof foyda	1023760	1241910	1646643	4845610	128204

IZOH: «Mexmash» AJ hisobotlari asosida tayyorlandi.

Korxonada mahsulot sotishdan olingan daromad 2015 yilgacha yildan-yilga ortib borgan. 2014 yili 2012 yilga qaraganda 26,63% ga, 2013 yilga qaraganda 9,02% . Lekin 2016 yili 2015 yilga qaraganda 7,9 %ga kamaygan. Bir qaraganda korxonadagi holat ijobiyga o'xshaydi. Ammo, chuqur tahlil qilinsa, ahvol yaxshi emasligi namoyon bo'ladi. Mahsulot sotishdan tushgan daromadga xom ashyo, yordamchi qismlar va boshqa resurslar narxining ortishi natijasidagi xolat ta'sir qiladi, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi va narxi ortib ketadi. Natijada daromad ham ortib boradi. Mahsulot sotishdan olingan daromadning ortish sur'ati belgilangan sur'atdan pasayib borayotganligi fikrimizning dalilidir. Korxona oladigan sof foyda darajasini o'tgan yillar davomidagi xolatini kuzatish bu fikrimizni yanada chuqurroq dalillar bilan isbotlaydi. Sof foyda 2012 yili 1023760 ming so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2016 yili 128204ming so'mni tashkil qildi. 2016 yili 2014 yilga darajadan ham, 2012 yilgi darajadan ham pasayib ketdi.

7-jadval

«Mexmash» AJ da mahsulot tannarxi harajatlari.

T.r	Moddalar	O'lchov birligi	2015 y	2016 y	O'sish sur'ati	2016 y.gi struktura
1	Asosiy xom ashyo	Ming so'm	3514523	4729086	134,6	85,1
2	Yordamchi materiallar	Ming so'm	198230	236870	119,5	4,2
3	Xizmatlar	Ming so'm	36963	46113	124,8	0,83
4	Yoqilg'i	Ming so'm	17293	24032	139,0	0,43
5	Elektr energiya	Ming so'm	57738	63545	110,0	1,14
6	Ish xaqi	Ming so'm	212586	271107	127,5	4,88
7	Ijtimoiy sug'urta	Ming so'm	75122	89465	119,1	1,61
8	Amortizatsiya	Ming so'm	20352	25774	126,6	0,46
9	Boshqa harajatlar	Ming so'm	58022	65241	112,5	1,35
	Jami:	Ming so'm	4190829	5551233	132,5	100,0

Keyingi fikrlar ana shu xolatdan chiqish va sanoat korxonalarining iqtisodiy – xo'jalik faoliyatini yaxshilash maqsadida tajribalarga asoslanib olib boriladi.

Korxonadagi ko'p xolatlarning sabablaridan biri ishlab chiqarish harajatlarining ortib borayotganligidir. SHu sababli korxonadagi ishlab chiqarish harajatlarining o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlarning harajatlari tahlil qilinganda, asosiy harajat xom ashyoga sarflanishi aniq bo'ldi. Xom ashyo harajatlari jami harajatlarning 85,1% ni tashkil qildi. O'tgan yili esa 83,6 % ni tashkil qilgan edi. Demak, umumiy harajatlar tarkibida xom ashyo harajatlari ortib bormoqda.

8-jadval

«Mexmash» AJ da tannarx strukturasidagi o'zgarishlar.

T.r	Moddalar nomi	Tannarx strukturasida		O'zgarishlar
		2012 yil	2016 yil	
1	Asosiy xom ashyo	83,6	85,1	101,8
2	Yordamchi materiallar	4,7	4,2	89,3
3	Xizmatlar	0,88	0,83	94,3

4	Yoqilg'i	0,41	043	104,8
5	Elektr energiya	1,37	1,14	83,2
6	Ish xaqi	5,07	4,88	96,2
7	Ijtimoiy sug'urta	1,79	1,61	90,0
8	Amortizatsiya	0,48	0,46	95,8
9	Boshqa harajatlar	1,70	1,35	79,4
	Jami:	100,0	100,0	

IZOH: «Mexmash» AJ hisobotlari asosida tayyorlandi.

Xom ashyo harajatlari strukturasi o'zni 1.8% ga o'sdi. Shu bilan birgalikda yoqilg'i harajatlari ham ortib bormoqda. Qolgan barcha harajatlar moddalarning umumiy harajatlardagi ulushi kamayib bormoqda. Elektr energiyasi sarfi umuman 10 % ga ortgani xolda 2016 yilga kelib uning mahsulot tannarxi strukturasi o'zni pasayib bormoqda. 2012 yilda yordamchi materiallar 4.7 foizni tashkil etgani xolda 2016 yilga kelib uning mahsulot tannarxidagi ulushi 2016 yildagiga qaraganda pasaymoqda yoki 2005 yilgi darajaning 89,3 foizini tashkil qilmoqda. Mahsulot ishlab chiqarish harajatlari barcha moddalar bo'yicha ortib bormoqda. O'tgan 2012 yilga qaraganda ular hisssasi ortib bormoqda.

2.3. Namangan Mexmash AJda tavakkalchilikni kamaytirish imkoniyatlari

Hozirgi kunda Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatida avvalgi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birga, yangi loyihalar ustida ish boshlangan. Bunday loyihalardan biri mis quvurlari ishlab chiqarish loyihasidir. Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatida mis quvurlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ushbu loyiha afzallikdari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- xom ashyo (mis) 100 foiz mahalliy bo'lib, mamlakatimizda AGMK tomonidan yiliga 90 ming tonna atrofida chiqariladi va shundan 10-15 foizi mahalliy korxonalar tomonidan qayta ishlashga yo'naltiriladi. Yurtboshimiz

takidlaganlaridek, mahalliy xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va buning natijasida qo'shilgan qiymatni oshirish dolzarb masaladir;

- mahsulot 90-100 foiz eksportga yo'naltirilganligi sababli yiliga 25-30 mln.

AQSH dollari miqdorida valyuta mablag'lari tushumiga erishiladi;

- shunda zavodning yillik valyutaga bo'lgan talabi 100 foiz qondiriladi;

- korxonaning ishlab chiqarish quvvatining o'zlashtirish darajasi 20-25 foizdan 50-60 foiz ko'tariladi;

- Namangan viloyati g'aznasiga yiliga 3 mlrd. so'm miqdorida soliq to'lanadi;

- yangi 120 nafar atrofida ishchi o'rinlari yaratiladi.

Ko'rinib turibdiki, Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida innovatsiyalarni qo'llashga bo'lgan e'tibor jiddiy bo'lib, bundan keladigan foyda ulushi ham ancha yuqoridir. Buning uchun albatta korxona miqyosida marketing tahlillari amalga oshiriladi va marketing rejalar tuziladi. Bunday rejalar asosida «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati o'zining bozordagi holatini va raqobatbardosh korxonalarga nisbatan o'rnini belgilaydi. Bu esa marketing, shu jumladan, reklama sohasidagi o'ziga xos izlanishlarni talab etadi va innovatsion imkoniyatlarni samaraliroq qo'llash imkoniyatlarini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda innovatsiyalardan foydalanish va uni ishlab chiqarishga tadbiq etish va u asosida tovarlar ishlab chiqarib, bozorda raqobatbardoshlikni oshirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda innovatsiyalarni qo'llashdagi dolzarblik Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatish mumkin. Innovatsiyalarni qo'llash nafaqat texnologik jarayonlarni rivojlanishiga, balki aholining tushmush darajasining oshishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari iqtisodiyotning o'sish sur'atlari va darajalariga sezilarli ta'sirini namoyon etadi.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida texnologik jarayonlar o'zgaruvchan bo'lib, texnika taraqqiy etgan sari to'xtovsiz ravishda

ratsionallashtirilib boriladi. Texnika taraqqiyoti texnologiya, mehnat vositalari va qurollarining har tomonlama takomillashuvidan hamda ishlab chiqarishni ilg'or tajribaga asoslangan holda zamonaviy fan va texnika yutuqlarini qo'llash orqali tashkil etishdan iborat. Texnika taraqqiyotining asosiy vazifasi ijtimoiy mehnatni har tomonlama tejash va ishlab chiqarishning yuqori sur'atlar bilan o'sishini ta'minlashdan iborat.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatida innovatsiyalarni qo'llashda uch asosiy bosqich hisobga olinadi:

Birinchi bosqich, ilmiy tadqiqot bo'lib, bunda ilmiy g'oyalarni shakllanishiga doir ishlar amalga oshiriladi. Ma'lum bir texnologik jarayonni yangilash nuqtai nazardagi yangicha yondashuvlar sinovdan o'tkaziladi. Sinov muddatida tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Tadqiqotlar natijalarida aniq ko'rsatkichlarda namoyon bo'lib, ilmiy xulosalarga kelinadi. Ilmiy xulosalar asosida mavjud jarayonlarni yangilashdagi yondashuvlar ijobiy yoki salbiy natijalar berishi qayd etiladi. Shunday xulosalarga qarab, muayyan yangilikni amaliyotga joriy etish mumkin yoki mumkin emasligi tahlil qilinadi.

Ikkinchi bosqich, loyiha-texnika jihatdan ishlab chiqish. Bu bosqichda texnologik chizmalar, loyihalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari ko'tariladi.

Agar mavjud mahsulotni takomillashtirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar har tomonlama o'rganiladi. Loyihalashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil etilib bartaraf etib boriladi. Buning natijasida kelgusida yaratilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish haqida yanada aniqroq tasavvur hosil bo'ladi.

Uchinchi bosqich, ishlab chiqarishda o'zlashtirish. Bu bosqich bevosita ko'pchilikni mehnatini talab etadigan bosqich hisoblanadi. Ishlab chiqarishda xom ashyodan ratsional foydalanish kerak. Bugungi kundagi ishlab chiqarish jarayonida texnikadan foydalanmaslik mumkin emas. Chunki ishlab chiqarish jarayonlarida sifat ko'rsatkichlarining ustuvor bo'lishi yangi texnika yoki texnologiyalarni qo'llanilishi bilan belgilanmoqda.

Yuqoridagi fikrlarimizdan anglash mumkinki, bugungi kunda Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida innovatsiyalarni qo'llashda fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan bog'liq qirralari ko'p. Chunki yangiliklarning aksariyati ilm-fan yo'nalishidagi tadqiqot va tajribalarning natijalari bo'lib, davrga mos ravishda murakkablikka tomon siljib bormoqda.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida fan-texnika taraqqiyotiga bo'lgan munosabat ikki asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi.

Birinchisi – bu mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish, o'zlashtirish va ishlab chiqarilayotgan buyumlarning texnik-iqtisodiy xarakteristikalarini yaxshilashdir.

Ikkinchisi – ilg'or texnologik jarayonlarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish, intensivlashtirish, avtomatlashtirish, ximiyalashtirish, gazlashtirish, davriy jarayonlarni uzluksiz jarayonlar bilan almashtirish, toza va kontsentrlangan mahsulot ishlab chiqarish va hokazo. Bu ikki yo'nalishning uzviy qo'shib olib borilishi va bir-biriga ta'sirigina korxonada ham, butun xalq xo'jaligida ham ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishni ta'minlaydi.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida innovatsiyani qo'llash va uning faoliyati mahsulotlarning iste'mol qiymati ijodiy mehnat predmetlarining foydali xususiyatlaridan shakllanadi. Iste'mol qiymatini baholash sifat darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, innovatsiya mahsulotining yangilik, ixtirochilik darajasi kabi xususiyatlar yig'indisi, hal etilayotgan vazifalarning sifat xususiyatlari (murakkabligi, muhimligi, ilgorligi va boshqalar) orqali talqin etiladi.

Shuningdek, ishlanma qiymati va vaqti, moddiy-texnik va moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlarining mavjudligi, kutilayotgan foyda (iqtisodiy samara), atrof-muhitga ta'sir etish kabilar ham yangiliklarni baholash mezonlari hisoblanadi.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida innovatsiyalarni qo'llash amalga oshirilgan ekan, bu borada korxona tomonidan

ko'rilayotgan chora-tadbirlar ko'lamini ijobiy baholab bo'lmaydi. Har bir ishda bo'lganidek, korxonada innovatsiyalarni qo'llashda ham Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ayrim muammolar yuzaga kelgan. Bunday muammolarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Bugungi kunda Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining innovatsion boshqaruvida ilmiy-texnika va ishlab chiqarish-savdo faoliyatiga yo'naltirilgan tendentsiya yuzaga kelgan. Bu tendentsiya eng avvalo assortimentni ko'paytirishga intilish doirasida namoyon bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarishda yangi ilm talab etuvchi buyumlar solishtirma og'irligi ortib boradi. Ikkinchi tomondan esa an'anaviy mahsulot ishlab chiqarishda harajatlarni kamaytirishga intilish kuchayadi.

Jahon amaliyotida bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Innovatsiyalarni qo'llash natijasida katta foydalarga erishi bilan birga muayyan xavf-xatarining mavjudligidan, ya'ni tavakkalchilikni noo'rin qo'llanilganidan zarar ko'rish ham mumkin. Masalan bugungi kunda, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozli davrda innovatsion menejmentdagi bunday tendentsiya ayniqsa AQSH mashinasozligida sezilarli namoyon bo'lmoqda. Biroq, radioelektronika, EXM va mikroprotsesszorlar yaratishda, aloqa vositalari, aviakosmik texnika, energetik inshootlar, avtomatizatsiya vositalari va boshqa shu kabi sohalarda aniq ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Tahlillarimizni Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati misolida davom ettiradigan bo'lsak, sanoat bo'limlarida ilmiy-texnika siyosati birinchidan korxonaning umumiy xo'jalik siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan esa sanoat bo'limlarida hal etilayotgan operativ-xo'jalik masalalarini amalga oshirish vositasi sifatida ishtirok etadi.

Ilmiy-texnika siyosati shunday amalga oshiriladiki, bunda mahsulot yaratish va ishlab chiqarish yo'li bilan samaradorlikni oshirishning ta'minlashga erishiladi, iste'molchilarning ehtiyoji va talabi qondiriladi, firmaning iqtisodiy salohiyati mustahkamlanadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ilmiy-texnika yondashuvi asosidagi boshqaruvda uzviy muammolar yuzaga kelgan. Bu muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aniq bozorlarning doimiy o'zgaruvchanligi;
- bozor muhitiga ishlab chiqarishning tez va to'g'ri moslashuvdagi qiyinchiliklar;
- bozor o'zgarishlariga ko'ra joriy va o'rta muddatli rejalarga tegishli tuzatishlar kiritishdagi qiyinchiliklar;
- o'zgarib qolgan rejalarga bog'liq holda harajatlarni minimallashtirishdagi qiyinchiliklar.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati boshqaruvida yoki innovatsiyalarni qo'llashdagi bu kabi muammolar marketing izlanishida kamchiliklar borligi bilan izohlanadi. Chunki marketing barcha yangiliklarni amalga oshirish yoki amalga oshirish mumkin emasligi to'g'risidagi xulosani beradigan soha bo'lib ham xizmat qiladi. Boshqacha aytganda bozorni o'rganishdagi vaziyatlarda xato qilmaslikka harakat qilish kerak. Agar xatolar yuzaga kelib qolsa, u holda ularni minimallashtirish imkoniyatlarini ishga solish talab etiladi. Shuning uchun ilmiy sohada tadqiqotlarni olib borishda o'ta yuqori darajadagi puxtalik talab etiladi.

Odatda ilmiy-texnika boshqaruvini tashkil etish 3 ta muhim yo'nalish bo'yicha ishlab chiqiladi:

- yangi tovarlar ishlab chiqarishga sanoatni yo'naltirish;
- sanoatni ishlab chiqarilayotgan mahsulotni texnik jihatdan tezda yangilashga yo'naltirish;
- aniq eskirgan, biroq alohida bozorlarda o'z talabiga ega bo'lgan, an'anaviy tovarlar ishlab chiqarishga sanoatni yo'naltirish.

Ammo aksariyat korxonalar bunday yondashuvlar asosida ishlashda qiyinchiliklar sezadilar. Masalan, Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ham xuddi shunday muammolar bor. Chunki ilmiy izlanish uchun ham qobiliyatli kadrlar va mutahassislar zarur bo'ladi. Agar

korxonada bunday kadrlar kam bo'lib, yoki bo'lmasa, u holda innovatsiyalarni qo'llash darajasi umuman pasayib ketadi. Shuning uchun korxona rahbariyati yangi xodimlarni ishga qabul qilish jarayonlarida, kelajakda ish boshlaydigan yangi kadrlarning ilmiy salohiyati va qobiliyatiga e'tibor berilgani maqsadga muvofiqdir.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ilmiy-texnika boshqaruvi quyidagi asoslangan masalalarni hal etishni taqozo etadi: birinchidan, umuman yangi mahsulot ishlab chiqarish (vazifasi bo'yicha bozorda bu mahsulotga o'xshagan mahsulot yo'q). Bunday yondashuvni amalga oshirish iste'molchiga faol ta'sir etadi.

Uning yangi ehtiyojlarini yuzaga keltiradi. Biroq bunday yondashuv ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish sohasida juda katta harajatlarni talab etadi. E'tiborli tomoni shundaki, umuman yangi tovar ishlab chiqarishda raqobat tovarni loyihalash bosqichlaridayoq boshlanadi. Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida buning uchun korxona likvidlilik darajasini oshiradigan chora-tadbirlarni ko'rib borish zarur.

Ikkinchidan, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish (bozorda bunday mahsulotga o'xshashlari bor bo'lgan mahsulot). Bunday mahsulotlar bozorda tijorat jihatdan tezda ustunlikka erishadilar. Korxona NIOKR ya'ni (ITTLI-ilmiy-tadqiqot va tajribaviy loyihalash ishlari) uchun yirik xarajatlarni amalga oshirmasada, yangi mahsulot bilan bozorga tez kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bozor to'yinguncha o'z ulushiga ega bo'lib boradi. Bunday siyosatning o'ziga xos tomoni shundaki, yangi mahsulotni yanada boshqacha turlarini ishlab chiqarishga tomon yo'naltirilgan izlashlar olib boriladi.

Biroq buning uchun ham muayyan darajadagi innovatsion xarakatlarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Bu xarakatlar albatta yana moliyaviy harajatlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Uchinchidan, sanoatni mahsulot ishlab chiqarishga texnik jihatdan yangilashga yo'naltirish. Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ilmiy-texnika boshqaruvining bunday yo'nalishda olib borilishi

mahsulotning yangi modernizatsiyalashgan va o'zgarishlar kiritilgan - takomillashgan ko'rinishda ishlab chiqarishni talab etadi. Yangi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida o'xshash mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida firmalar raqobati avj oladi.

To'rtinchidan, an'anaviy mahsulot ishlab chiqarishga sanoatni yo'naltirish asosan eskirgan, biroq o'ziga xos talabga ega bo'lgan an'anaviy texnologiya asosida ishlab chiqarishni tashkil etishni takazo etadi. Mahsulotlar ma'naviy eskirgan bo'lsa-da, o'zining hayotiy davrining uzaytirilishi hisobiga bozorda muayyan talabga ega bo'ladi.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida innovatsiyalarni qo'llashdagi asosiy muammolar tadqiqotlarni olib borishda, marketing tizimidan foydalanishda, ilmiy salohiyatning darajasiga bog'liq holda yuzaga kelmoqda. Ammo ularni bartaraf etish chora-tadbirlari mazkur korxona rahbariyati tomonidan qo'llanilib borilmoqda.

«Mexmash» AJ ning iqtisodiy xo'jalik faoliyatini o'rganganimizda uni kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga alohida e'tibor berdik. Chunki, korxonadagi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini samarali xolda amalga oshirish uchun faoliyati nisbatan samarasiz bo'lgan tomonlarni o'rganib, tahlil qilib, ularni samarali faoliyatini ta'minlashga erishish lozim. quyidagi - jadvalda korxonadagi turli bo'limlar xolatini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

9-jadval

«Mexmash»AJning kuchli va kuchsiz tomonlari

T.r	Ko'rsatkichlar	Zaif	O'rta	Kuchli
	I. Ishlab chiqarish			
1	Korxona ko'lami:			
	1- ishlab chiqarish	+		
	2- ishlab chiqarish		+	
2	Dastgoxlar xolati	+		
3	Ishlab chiqarish xolati		+	
4	Mehnat sifati va mehnatga talab		+	
5	Sifat		+	
6	Mahalliy xom ashyolardan foydalanish			+
7	Xom ashyoni sotib olish darajasi	+		

8	Ishlab chiqarish quvvati		+	
9	Ishchilar va kasaba uyushma aloqasi			+
10	Boshqaruv va ishchilar aloqasi		+	
	II. Marketing			
1	Sotuv kanallari		+	
2	Mahsulot sifati		+	
3	Bozor izlanishlari		+	
4	Mahsulot xilma-xilligi		+	
5	Narxni raqobatbardoshligi	+		
	III. Ilmiy izlanishlar			
1	Korxonaning texnik imkoniyatlari		+	
2	Yangi mahsulot innovatsiyasi		+	
	IV. Boshqaruv			
1	Boshqaruv faoliyati		+	
2	Davlat strukturalari bilan aloqa		+	
3	Moliyaviy resurslar		+	

IZOH: Olib borilgan kuzatishlar natijasida tayyorlandi.

«Mexmash» AJ dagi iqtisodiy xo'jalik faoliyatining 20 ta ko'rsatkichi bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Ulardan faqat ikkitasigina kuchli tomonlar deb e'tirof qilindi. Ular mahalliy xom ashyolardan foydalanish hamda ishchilar va kasaba uyushmalarining aloqalaridir.

2016 yilga kelib Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatida hal xil o'lchamdagi po'lat quvurlar 9049 tonna miqdorida ishlab chiqarilib, ularning tannarxi 23,4 mlrd. so'mdan oshdi. Huddi shu mahsulot turi 2015 yilda ishlab chiqarilganda 8955 tonnaga to'g'ri kelib uning tannarxi 18,5 mlrd. so'mga to'g'ri kelgan.

Ko'rinib turibdiki, bunday quvurlarni ishlab chiqarish hajmi ko'paygan. Sababi mazkur korxonaning valyuta tushumi aynan shu mahsulotni ishlab chiqarishda ko'payadi. Demak, 2016 yilda har xil o'lchamdagi po'lat quvurlar 94 tonnaga ko'paygan holda ishlab chiqarilgan. 2016 yilda bunday quvurlarni ishlab chiqarishda mahsulot tannarxi 2015 yildagiga nisbatan olganda, 4,9 mlrd. so'mdan ko'proqni tashkil etmoqda.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqariladigan mahsulotlar qatorida arxiv stelajlari ham bor. Agar 2015 yilda bu mahsulot turidan 57 dona ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2016 yilga kelib 56 dona ishlab chiqarildi. Biroq bu stelajlarni tayyorlashdagi tannarxida o'zgarishlar sodir bo'lib, 2016 yildagi holatda xom ashyo narxi bir oz ko'tarilgandir. agar

2015 yilda jami arxiv stelajlarini ishlab chiqarish uchun 99622,4 ming so'm sarflangan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 122343,2 ming so'mni takshil etib, o'tgan yilga nisbatan olganda bitta kam stelaj ishlab chiqarilgan.

Bundan tashqari Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida turli uskunalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularni buyurtmachilar tomonidan o'zlashtirilishi kuchaymoqda.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida asosiy ishlab chiqarishdan tashqari yordamchi xo'jalik sifatida faoliyat ko'rsatayotgan va mazkur aksiyadorlik tarkibida tashkil etilgan kichik buyurtma va xizmatlar ham amalga oshirib boriladi. Bunday buyurtma va xizmatlar shartnoma asosida ishlab chiqarilib iste'molchilarga taklif etiladi. Ammo bu turdagi mahsulotlar ham buyurtma berish hisobiga ishlab chiqariladi. Masalan 2015 yilda 29 komplekt suv isitadigan kotyol ishlab chiqarilgan bo'lib, uning narxi 151,5 mln. so'mga to'g'ri kelgan. 2016 yilda esa xuddi shunday mahsulot 31 komplektda ishlab chiqarilib ularning tannarxi jami bo'lib, 160,88 mln. so'mga to'g'ri keldi. Agar tegishli yillar solishtirilsa, bir yil mobaynida 2 ta kotyolga ko'payish borligini ko'rish mumkin. Suv isitadigan kotyol xom ashyosi avvalgi yillarda olib qo'yilganligi uchun ularning narxida sezilarli darajada o'sish ro'y bermadi. Demak yillardagi miqdoriy o'sish 6,9 punktga oshganligini keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkin.

Ushbu tahlil etilayotgan korxonada Akfa panjaralari ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan. 2015 yilda bunday panjaralarda 2 dona ishlab chiqarish amalga oshirilgan.

2016 yilda buyurtma bo'lmaganligi uchun 1 dona akfa panjarasi ishlab chiqarildi. Bundan tashqari flaghtok, turli hajmdagi eshiklar, sotish rastasi uchun skameykalar, yechiniladigan shkaflar, mehnat anjomlari uchun shkaflar, pano, pechkalar va boshqa turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularni sifati doim kafolatlanib boriladi.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida 2016 yilga kelib ustav kapitali 990934 ming so'mni tashkil etdi. Bunda o'z mablag'lari

tarikbidagi rezerv kapitali 2016 yilda 5552132 ming so'mga to'g'ri kelib, 2015 yilga nisbatan olganda 2196310 ming so'mga oshgan. Xuddi shunday taqsimlanmagan foyda 2015 yilda 1770326 ming so'mga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 2367226 ming so'mga to'g'ri keldi.

Bunda taqsimlanmagan foydaning o'sishi 596900 ming so'mni tashkil etdi. Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatining jami o'z mablag'lari manbalari 2015 yilda 7097648 ming so'mga va 2016 yilda 11425674 ming so'mga teng bo'ldi. Bunda 2016 yila holatida 2015 yilga nisbatan olganda jamiyatning jami o'z mablag'lari 4328026 ming so'mga ko'paygan. Boshqacha aytganda o'sish sur'ati 161,0 foizga to'g'ri keldi.

«Mexmach» ochiq aktsiyadorlik jamiyati tarkibida tashkil etilgan kichik buyurtma va xizmatlar (shartnoma asosidagi ishlab chiqarish)

№	Mahsulot turlari	O'lchov birligi	2015 yil	Tannarxi (mln.so'm)	2016 yil	Tannarxi (mln.so'm)	Miqdoriga nisbatan farqi % da
1	Suv isitadigan qozon	komplekt	29	151,5	31	160,88	106,9
2	Srebok	dona	2	0,0408	2	0,0542	100,0
3	Kuraklar	dona	10	0,0853	10	0,0925	100,0
4	AKFA panjarasi(ofis uchun)	dona	2	3,983	1	2,306	50,0
5	Vafli qoliplarini ishlab chiqish	dona	1	0,169	1	0,239	100,0
6	“Besedka” skameyka	komlekt	2	0,512	3	0,955	150,0
7	Flagxtok	komplekt	1	0,107	1	0,198	100,0
	Turli hajmdagi eshiklar	dona	6	2989	7	3,488	116,6
9	Sotish rastasi uchun skameyka	komplekt	-		1	0,237	
10	Kiyim shkafi	komplekt	1	0,59	2	1,160	2 m
11	Mehnat anjomlari uchun shkaf	komplekt	3	2,374	3	3,411	100,0
12	IIV stoli uchun karkas	komplekt	-		1	0,021	
13	Skameyka	komplekt	14	7,2978	13	6,7766	92,8
14	Vagon konteyner	dona	1	1,869	1	2,283	100
15	Vanna	dona			1	0,158	
16	Seyf (metalldan)	dona	16	6,248	18	7,076	112,5
17	Balkon uchun panjara	dona	1	0,235	1	0,333	100
18	Panno DYUE	dona			1	0,546	
19	Teplitsa montaji uchun taxtalar	dona			49	9,3688	
20	Boshqa xizmatlar		2	1,973	2	2,907	100,0
21	Pechka	dona	1	0,238	2	2,907	100,0
22	Kukanov pechkasi	dona	1	0,032	1	0,047	100
	Jami			180,2879		2020,9011	

III BOB. SANOAT KORXONALARIDA TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHNING ASOSIY YONALSHLARI

3.1. Sanoat korxonalar assortimenti shakllanishining ilmiy-uslubiy asoslari

Sanoat korxonalarida tavakkalchilikni kamaytirish, tez o'zgaruvchan iqtisodiyotda boshqaruv sanati bilan foydalanishi va ularni qo'llash orqali faoliyatlarida yuzaga keladigan zarar va xavflarni oldindan ko'ra bilishi va baholay olish vazifalarning hal etilishi, birinchi navbatda, sanoat korxonalarining assortiment siyosatiga bog'liq ilmiy-uslubiy masalalarni tadqiq qilish va yangi uslublarini ishlab chiqish vazifalariga bog'liq. Assortiment so'zi fransuzcha «assortiment» so'zidan olingan bo'lib, turli xil va sifatli tovarlarni saralash ma'nosini beradi. Amaliyotda ko'proq “tovar turlari”, “tovar nomenklaturasi”, “tovar xillari”, “tovarlar to'plami”, “tovar xilma-xilligi”, “tovarlar birligi” kabi tushunchalardan foydalaniladi. Marketing nuqtai nazaridan esa “tovar assortimenti” deganda bir-biriga yaqin bo'lgan tovarlar guruhi yoki ma'lum bir to'plamdagi tovarlardan ajralgan alohida to'plamdagi tovarlar tushuniladi.

“Tovar assortimenti” tushunchasini juda ko'plab ma'no va talqinlarda ishlatilib, marketingda uni “tovar miks” doirasida qo'llaymiz. G'arb olimlari talqini bo'yicha “tovar-miks”da aynan “assortiment siyosati” yotadi.

Tovar assortimenti – bog'langan yoxud o'zaro foydalanish va ishlatilishi umumiyliigi yoxud bitta va aynan o'sha savdo nuqtasida sotiluvchi, yoxud bir xildagi narxlar doirasiga ega bo'luvchi tovarlar guruhi. “Tovar assortimenti” tushunchasini tavsiflashda rus olimi A.P.Pankruxin ham 4 ta asosiy xususiyatni sanab o'tgan: tovarning funktsional xususiyati, iste'mol xususiyati, sotish nuqtalari va narxi bo'yicha guruhlangan tovarlar to'plami.


Ko'plab olimlarning nazariy qarashlari bo'yicha korxona marketing faoliyatining asosi uning – “tovar assortimenti siyosatida” deb biladilar.

Korxona raqobatbardoshligini baholashda ham eng muhim omillar sifatida uning assortiment siyosati yotadi.

Tovar strategiyasi – assortimentni shakllantirish va uni boshqarish tartiblari, tovarning raqobatbardoshligini talab qilingan darajada aniqlash, tovarlar uchun zarur iste'molchilar guruhi (segmentlari)ni topish, tovarlarga ishlov berish va qadoqlash, dizayn va servisni ta'minlash

jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan sanoat korxonalarining assortiment siyosati shakllanishining nazariy asoslari chuqur tadqiq qilinmagan bo'lib, ilmiy qarashlar, asosan, savdo assortimentining shakllanish jarayonlarini ilmiy tadqiq qilish va uni boshqarish jarayonlariga qaratilgan. Assortiment siyosati va uni boshqarish jarayonlarini sanoat korxonalarida shakllanish jarayonlari tadqiq etish masalalari nazardan chetda qolayotgan holatlarni ko'ramiz.



7-rasm. Savdo assortimentini shakllantirish

Tovarlarning “sanoat” va “savdo” assortimenti farqlanadi. Sanoat assortimenti sanoat korxonalarida, savdo assortimenti esa savdo korxonalarida shakllangan assortiment hisoblanib, ularning shakllanishi o'zaro bir-biriga bog'liq ravishda kechadi (7-rasm). Sanoat assortimentining shakllanishi va tarkibiy o'zgarishi iste'mol tovarlari bozori rivojlanishiga zamin yaratib beradi. Sanoat assortimenti o'zgarish xususiyatiga ega bo'lib, uni savdo assortimentining shakllanish xususiyatlari belgilab beradi. Sanoat va savdo assortimenti, o'z navbatida, to'g'ridan-to'g'ri va teskari bog'lanishga ega hisoblanadi. Sanoat assortimenti ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladigan va ular tomonidan

ishlab chiqariladigan tovarlar guruhi hisoblanadi. F. Kotler sanoat tovarlari - material va xomashyolar hisoblanib, “ular ishlab chiqarishda ishtirok etadigan va foydalaniladigan buyumlar yoki tovarlar guruhi” deb ta’riflangan.

Sanoat assortimentini shakllantirish jarayonlari savdo assortimenti shakllanishidan murakkab hisoblanadi, bu esa quyidagilarda o’z aksini topadi:

- sanoat assortimentini shakllantirish jarayoni savdo assortimentini o’zgarishiga bog’liq ravishda amalga oshirilishi lozim;
- sanoat assortimenti sanoat korxonalarining tarkibiy strukturasini o’zgartirishni taqozo etadi;
- sanoat korxonasi assortiment o’zgarishiga mos holda ishlab chiqarish jarayoni o’zgartirilishi lozim;
- sanoat assortimenti shakllanishi innovatsiyalar, NIOKR, ilm-fan, yangi boshqaruv, yangi kadrlar va qo’shimcha moliyaviy mablag’lar talab etadi;
- sanoat assortimenti xomashyo va mavjud resurs imkoniyatlari doirasidan chiqa olmaydi;

Assortiment siyosatini ishlab chiqish korxonaning majburiyati emas, balki raqobat omili ta’siridan saqlanishdagi ustuvor vazifa sanaladi.

Raqobat sanoat korxonasi tovarlari assortimentini kengaytirishga asosiy turtki bo’lib xizmat qiladi.

Assortiment siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilarga qaratiladi:

- istehmolchilar talabini maqsadli qondirish;
- yangi talabni shakllantirish;
- korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash;
- bozordagi mavjud tovarlar guruhini o’z vaqtida tahlil qilish orqali ularning hayotiyiligini uzaytirish;
- mavjud tovar modellarini takomillashtirish va turlarini ko’paytirish orqali bozorni yanada kengaytirish;
- iste’mol tovarlari bozorini rivojlantirish.

Sanoat tovarlari assortimentini shakllantirish jarayonida, eng avvalo, 2 ta xususiyatga e'tibor qaratish lozim: yangi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yoki mavjud assortimentni yaxshilash yoki o'zgartirish.

F. Kotlarning bozorda sotilayotgan tovarlar assortimentini quyi, yuqori va o'rta ulushga ega bo'lgan tovarlarga ajratadi va assortiment siyosatini quyidagicha izohlab berdi:

- bozorda yuqori ulushga ega bo'lgan korxonalar pastga, ya'ni bozor ulushi past bo'lgan tovarlar assortimentini shakllantirishga hamda yangi segmentlar uchun yangi assortimentlar taklif etishga intiladi:

- bozorda past ulushga ega bo'lgan korxonalar esa yuqori darajadagi bozor ulushlarini yoki yuqori ulushga ega bo'lgan korxonalar o'rnini egallashga intiladi.

F. Kotler o'z qarashlarini bozordagi eng samarali faoliyat assortimentni ham pastga, ham yuqoriga qarab shakllantirishida, deb izohlaydi. Shunday assortiment siyosatini ishlab chiqqan korxonalargina bozorda eng yuqori ulush va eng yuqori foydaga erishishi mumkinligini ochib berdi. 2-rasmga ko'ra S korxonaning assortiment siyosati eng samarali hisoblanadi. S korxonaning bozordagi ulushi doimo kengayib boradi. Ushbu mulohazaga asoslangan holda sanoat korxonalarining assortiment siyosati shakllanish omillarini ularning bozor ulushiga ko'ra ham aniqlash mumkin.

M. Boltabaev tadqiqotlarida assortiment siyosati – “tovar siyosati doirasida bozorda muvaffaqiyatli ish olib borish va faoliyatning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash uchun tovar guruhlarining eng afzal yo'nalishini aniqlash masalasi bilan shug'ullanadi” deb talqin qilgan. To'qimachilik korxonalarining assortiment strategiyasi sifatida – mahsulotlarni differentsitsiya, diversifikatsiya strategiyalari va tovarning vertikal integratsiyasini ta'minlash yo'nalishlarini ilgari surgan holda, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini ham investitsiyalar hisobiga samarali boshqarishning uslubiy asoslari bo'yicha tavsiyalar bergan.

R. Muratovning tadqiqotlarida aholi iste'moli uchun yengil sanoat mahsulotlari assortimentini shakllantirishning hududiy jihatlarini bo'yicha

tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, iste'mol tovarlari bozorida yengil sanoat tovarlari assortimentining shakllanish xususiyatlari to'la ochib berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston aholisini yengil sanoat mahsulotlari bo'yicha garderoibi va uning o'zgarish xususiyatlari to'la tadqiq etilgan. Biroq tadqiqot ishida iste'molchilar garderobida milliy korxonalarimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan tayyor kiyimlar va ularning umumiy garderobidagi ulushini aniqlash asosida sanoat korxonalarimizning ichki bozor uchun assortiment siyosatini shakllantirish yo'nalishlari e'tibordan chetda qolgan.

Sanoat korxonalarining assortiment siyosati shakllanishini ko'plab tadqiqotlarda "tovar-bozor" portfeli doirasidagi muhim yo'nalish sifatida ko'rishimiz mumkin. Biroq assortiment siyosati, birinchi navbatda, iste'molning o'zgarish tendentsiyalari va sanoat korxonalaridagi texnologik imkoniyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Sanoat korxonalari mahsulotlari assortimentini, texnologiyalarini bozor imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'zgartirish marketing kontsepsiyasining asosi hisoblanadi. Korxonada mavjud texnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan tovarlarga bozorning muayyan bo'g'ini qiziqmay qo'yishi uning hayotiylik davri qonuniyatidan bizga ma'lum. Agar korxona ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'la foydalanishni ko'zlasa, mazkur tovarni iste'mol qila oladigan boshqa bo'g'inlar, tovardan foydalanishning yangi usullari va shu kabilarni qidirish zarur. Bunday imkoniyatlar chegaralangan hollarda esa korxona o'zining assortiment siyosatini ishlab chiqishi lozim.

Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarining assortiment siyosatini ishlab chiqishda "tovar-bozor-texnologiya" matritsasi qonuniyatlaridan kelib chiqib, ularga assortiment siyosatini shakllantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish mumkin. Hozirda Namangan viloyatida 300 dan ziyod korxonalarda tayyor kiyimlar ishlab chiqarilmoqda va uning jami sanoatdagi ulushi 38,4 %ni tashkil etadi. 2011-2013 yillar davomida viloyatda trikotajlar ishlab chiqarish 170 %, tikuvchilik mahsulotlari 190 %, poyabzallar esa 2 marta oshdi. Ichki bozorda 2011-2013 yillarda tayyor kiyimlarga bo'lgan

talab 158 %, trikotajlarga 167 %, poyabzallarga esa 181 % oshdi. Tahlil etilayotgan yillar davomida tarmoqda yangi 30 dan ortiq korxona eksportchilar qatoriga qo`shilib, yangi bozorlar o`zlashtirildi. Ko`plab korxonalarda maxsulotlarning yangi turlari o`zlashtirilmoqda, jumladan: “Istiqlol Tekstil Dizayn” MCHJda erkaklar uchun galstuk hamda “Chorkesar invest” XKda ayollar ro`mollari ishlab chiqarish yo`lga qo`yildi.

Biroq, viloyat tayyor kiyimlar bozorida o`tkazilgan marketing tadqiqotlari, kichik korxonalardan yig`ilgan tadqiqot anketalari natijalari ularning assortiment siyosatini shakllantirishda xali yechimini kutayotgan quyidagi muammolar mavjudligini tasdiqladi:

- haligacha ustkiyimbop gazlamalar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati yo`lga qo`yilmagan;

- tayyor kiyim ishlab chiqaruvchilarimiz uchun asosiy xomashyo xorij mamlakatlari gazlamalarini tashkil etayotganlik natijasida tegishli rang va bezakdagi gazlamalarga buyurtmalar berish imkoniyati cheklangan;

- tayyor kiyimlarning urf o`zgarish tendentsiyalarini marketing tadqiqotlari asosida o`rganish va istiqbolli modellarni yaratish borasida ilmiy tadqiqot tizimli yondashuvlar mavjud emas;

- korxonalarning malakali dizaynerlar bilan ta`minlanganligi, marketologlar, dasturchi modelyerlar, muhandis texnologlar, qadoqlovchi mutaxassislar va malakali tikuvchilarga bo`lgan talabi hali ham yuqoriligicha saqlanayotganligi;

- ishlab chiqarilgan va sotishga qo`yilgan tayyor kiyimlar assortimentining torligi, mahsulot sifati xalqaro standartlarda ishlab chiqarilmasligi natijasida ko`plab korxonalar o`z mahsulotlarini eksport qila olmayotganligi;

- aholi daromadlari oshishi bilan tayyor kiyimlar iste`mol xususiyatlari yuqori darajada o`zgarayotganligi va korxonalarimizda ishlab chiqarilayotgani tayyor kiyim modellari, sifati, dizayni unga mos emasligi;

- ichki bozorlarimizda haligacha xorij mamlakatlari tovarlari assortimentining ulushi yuqoriligicha saqlanayotganligi;

-dizayner-konstruktorlik, marketing, konsalting xizmatlaridan foydalanish darajasi pastligi;

-texnik-texnologik imkoniyatlarga ega bo`lsa-da, yangi maxsulotlarni o`zlashtirishda innovatsiyalarga asoslanmaslik, marketingning innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi pastligi;

Yechimini kutayotgan bunday masalalarni hal etish yo`nalishi sifatida tayyor kiyim ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarida “istiqbolli tayyor

kiyimlar assortimentlari model – konstruktsiya to`plamlarini” innovatsion marketing texnologiyalari asosida yaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Istiqbolli tayyor kiyimlar assortimentlari model – konstruktsiya to`plamlarini shakllantirishda ikki tomonlama yondashuv talab etiladi:

-iste`molchilarning tayyor kiyimlarga bo`lgan talabi o`zgarishini hisobga olish va unda quyidagi omillarga tayangan holda ish olib borish – aholining did-istagi, urf o`zgarishlari, raqobat muhiti, alohida urfdagi tayyor kiyimlar garderobdada ko`payishi, axolining madaniylashgan guruhlar ko`payishi va boshqalar;

-korxonalarning iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarini baholash va unda quyidagi omillarga tayangan holda ish olib borish – ishlab chiqarish hajmi, quvvati, korxonani iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari, xom ashyo va resurslar ko`lami va boshqalar;

Birinchi navbatda, sanoat korxonalari assortimentini shakllantirishda iste`mol tovarlari bozorining holati va undagi assortimentning o`zgarish xususiyatlarini doimo marketing tadqiqotlari asosida o`rganib borish lozim.

Tadqiqotlarda asosiy ehtibor chakana savdo korxonalarida shakllangan assortiment va ulardagi o`zgarishlarga qaratiladi. Namangan viloyati tayyor kiyimlar chakana savdo tarmoqlarida shakllangan assortiment tadqiqoti natijalari, iste`molchilarning eng muhim segmenti hisoblangan ayollar va bolalar guruhiga taklif etilayotgan tovarlarning asosiy qismi Turkiya, Koreya va Xitoy va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tikuv kiyimlari ulushining yuqoriligi saqlanib qolayotganligi aniqlandi. Shuningdek, oilaviy panel tadqiqot usulida o`tkazilgan

so'rovlar esa oila a'zolarining eng talabchan segmenti 17-30 yoshdagi ayollar va 31 – 60 yoshdagi erkaklar va ayollar hisoblanishi va korxonalarimiz tomonidan ichki bozorlarimizga taklif qilinayotgan tayyor kiyimlar ushbu segmentlarning istehmol xususiyatlariga yetarlicha javob bera oladigan tayyor kiyim ishlab chiqargan korxonalargina raqobatga qarshi tura olish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Shunga ko'ra, korxonalarimiz tayyor kiyimlar bozori tarkibining yuqori darajada o'zgarayotganligini hisobga olgan holda kontsentrlangan marketing strategiyalaridan foydalanishi lozim, deb hisoblaymiz.

Yengil sanoat korxonalari o'z assortiment siyosatini ishlab chiqishida iste'mol garderoibi va uning tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlab borishi talab etiladi. Sababi, xaridlardagi assortiment tarkibining o'zgarishi va uning darajasiga mos holda shakllantirilgan strategiya orqaligina bozor ulushlarini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Sanoat korxonalarida assortiment siyosatini shakllantirishda aholi daromadlari o'zgarishini hisobga olish va uni tayyor kiyimlar garderoibi tarkibining o'zgarishlariga ta'sirini baholashdir. Tadqiqotlarda istehmolchilarning o'rtacha ish haqi miqdori, ularning qo'shimcha daromad va xarajatlari tarkibining shakllanish jarayonlariga ta'siri o'rganilgan.

Fikrimizcha, iste'mol assortimenti tarkibi o'zgarishlarini baholashda oila a'zolarining jami daromadlari va shakllangan garderoibi hisobga olinsa maqsadga muvofiq. Sababi, har bir oila daromadlari shakllanishi oila a'zolariga ta'sir etmay qolmaydi va ularning kiyinish darajasi, import tovarlarni sotib olishga bo'lgan holati ham oilaviy byudjet bilan bog'liq holda kechadi. O'zbek mentaliteti, urf-odat va an'analari, milliy qadriyatlardan kelib chiqib, oilaning jami daromadlari oila a'zolarga teng taqsimlanib ketishi tabiiy hol. Korxonalar assortiment siyosatini shakllantirish mamlakatimiz va uning hududlari miqyosida oilaviy daromadlar va ularning taqsimlanish jarayonlarini chuqur o'rganish asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Tayyor kiyimlar bozorida assortimentga ta'sir etuvchi yana bir eng muhim omil oilalarning ijtimoiy kelib chiqishi hisoblanadi. Oila a'zolarida kiyinish

madaniyati oila boshlig'iga qarab shakllanadi. Bunda e'tibor beriladigan asosiy jihat oilaning o'qimishlilik darajasi va kasb-kori hisoblanadi. Oila boshlig'ining kasbi, turmush darajasi bevosita oilaviy madaniyatni belgilab beradi va tayyor kiyimlar assortimenti ham shunga mos holda shakllanib boradi. Oilalarning ijtimoiy kelib chiqishini hisobga olgan holda shakllantirilgan assortiment siyosati orqali ichki bozorda raqobatlasha oladigan mahsulotlar assortimentini ko'paytirish imkoniyatlari mavjud.

Yuqoridagi tavsiyalar ichki bozorlarda marketing tadqiqotlarini tizimli tashkil etish va ularni o'tkazish usullari, axborotlar yig'ish manbalarini tizimli tashkil etishni majbur qilib qo'yadi. Fikrimizcha, Namangan viloyatida marketing va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar tashkil etish zarur.

Asosiy assortiment o'zgarishlari tendentsiyalarini hisobga olib tayyor kiyimlar assortimentini shakllantirishdagi eng muhim masalalardan yana biri "dizayn va moda" markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish va ular bilan ishlab chiqarish korxonalari kooperatsiyasini mukammal va tizimli shakllantirishdir.

Hozirda dizayn va moda markazlari o'zlarining asosiy funktsiyasi sifatida milliy kiyimlar va alohida talabga ega bo'lgan kiyimlar dizaynlarini ishlash bilan ko'proq mashg'ul bo'lmoqdalar. Ommaviy tayyor kiyimlar assortimentni shakllantirish va ularni urfning o'zgarish tendentsiyalariga muvoqlashtirish masalalariga haligacha chuqur ilmiy asoslar mavjud emas. Shunga ko'ra, dizayn va moda markazlari faoliyati bevosita istehmol bozori bilan sanoat korxonalarini bog'lovchi asosiy zanjir sifatida shakllantirilishi lozim.

Tayyor kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi injiniring markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish esa texnologik muammolarni yechish imkoniyatini yaratib beradi. Ushbu omil yengil sanoat korxonalarining barchasi uchun muhim hisoblanadi. Hozirda tayyor kiyimbop gazlamalar ishlab chiqarish nafaqat Namangan viloyatida, balki respublikamizda ham o'ta dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. To'quvchilarimiz hozirda faqat paxta ipi gazlamalari va trikotajlar bilan cheklanmoqda. Tikuvchilik tarmog'i uchun assortimentning shakllanishi gazlamalar ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan zanjirsimon aloqasini

o`rnatishi lozim. Tayyor kiyim ishlab chiqaruvchilarimiz tomonidan esa kiyimbop gazlamalarning deyarli barchasi import qilinmoqda. Injiniring markazlari faoliyatini yo`lga qo`yish, bunday markazlar faoliyatini ilmiy tadqiqot markazlari bilan bog`lash orqali kiyimbop gazlamalarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish imkoniyatlari ochiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib istiqbolli tayyor kiyimlar assortimentlari model – konstruktsiya to`plamlari shakllanishi. 4-rasmda keltirilgan innovatsion modeli tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarining bozor faoliyati samaradorligini belgilab beradi.

Tayyor kiyimlar assortimentlari model – konstruktsiya to`plamlarini shakllantirish borasida Namangan viloyatida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Viloyati hokimining 2015 yil 4 fevraldagi “Viloyatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subhektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini ta`minlash maqsadida, ularga texnik-texnologik, injiniring, dizayn-urf, reklama va konsalting xizmatlari ko`rsatishni yo`lga qo`yish to`g`risida”gi maxsus qarori imzolandi. Qarorda tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga dizayn va urf xizmatlarini ko`rsatuvchi markaz faoliyatini yo`lga qo`yish va uning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, injiniring xizmatlarini ko`rsatuvchi markazlar faoliyatini yo`lga qo`yish masalalari belgilangan. Ushbu qaror Namangan viloyatida to`qimachilik soxasidagi bosh ilmiy markaz bo`lgan Namangan muhandislik-texnologiya instituti bazasida shakllantirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Institut bazasida shakllantiriladigan dizayn va urf markazi hamda injiniring xizmatlari yo`lga qo`yilishi Namangan viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan tayyor kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalarni istiqbolli model-konstruktsiya to`plamlarini yaratish yo`nalishining bosh maqsadi etib belgilanganligi, ushbu tarmoqda assortiment siyosatining boshqaruvi bir tizim asosda shakllanishiga ichki mahsulotlarimiz raqobatbardoshligining oshishiga asos bo`ladi. Markazda tayyor kiyimlar assortimentlari model – konstruktsiya to`plamlari va tayyor kiyim

assortimentlarining o'zgarish tendentsiyalari tadqiqotlari asosida istiqbolli ishlanmalar shakllantiriladi.

Mehnat faoliyatining asosiy maqsadi, bu–biror natijaga erishish, masalan, mahsulot ishlab chiqarish yoki sifatli xizmat ko'rsatishdan iborat.

Har qanday ishchi yoki ishchilar guruhi uchun mana shu natijaning unumdorligi, ya'ni ma'lum ish vaqti birligida (soat, kun, yil) qancha mahsulot ishlab chiqarilganligi muhim ahamiyat kasb etadi va bu natija qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulotning har bir birligiga sarflanadigan bino uchun ijara haqqi, elektr energiyasi to'lovi va shu kabi xarajatlar miqdori shunchalik kamayadi. Xuddi shu tarzda, mehnat unumdorligi ortgani sari mahsulot hajmi oshib borishi natijasida unga sarflanadigan xarajatlar ham qisqarib boradi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atini yanada oshirishda mehnat unumdorligini oshirish bugungi kunning muhim dolzarb masalasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlanganlaridek, "... qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlardan to'liq foydalanishda, mehnat samaradorligini oshirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar mahsulotlar tannarxining asossiz ravishda o'sib ketishiga olib kelmoqda"⁵.

Albatta, bunday islohotlarning zamirida mamlakatimizda korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish hisobiga aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish kabi dolzarb masalalar turganligini ta'kidlashimiz mumkin. Korporativ tuzilmalarda moliyaviy menejment mexanizmini samarali tashkil etishda risk va daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri talqin eta olish va uni to'g'ri baholash dolzarb masalalardan biri sanaladi. Xalqaro amaliyotda aksariyat kompaniya moliyaviy menejerlari oldida turgan asosiy funktsiyalardan biri ham moliyaviy risklarni samarali boshqarishda, risk va daromadlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'g'ri baholash va tahlil qilish hisoblanadi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Ma'kamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli maoruzasi". // Xalq so'zi, 20.01.2012 y. № 9.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish xususan, risk va daromadlilik kontseptsiyasining amaliy elementlarini joriy etish borasida samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015 yil 24 aprelda qabul qilingan "Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4720 sonli farmonini amaliyotga keng tatbiq qilinishi yuqoridagi jumlarimizning tasdig'idir. Mazkur Farmonda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksionerlik jamiyatlarida boshqaruv tizimini xalqaro standartlariga moslashtirish borasidagi quyidagi asosiy jihatlar qamrab olingan:

- eski bo'linmalar va lavozimlarni tugatish, zamonaviy xalqaro standartlar va bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi bo'linma va lavozimlarni joriy etishni inobatga olgan holda, aktsiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish;

- yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida boshqaruv xodimlarini tayyorlash va ularning kasb darajasini oshirish, shuningdek, aktsiyadorlik jamiyatlarida rahbarlik lavozimlariga chet ellik yuqori malakali menejerlarni jalb qilish.

3.2. Sanoat korxonalarida moliyaviy tavakkalchilikni boshqarish

Moliyaviy menejment tizimida risk va daromadlilik kontseptsiyasi asosiy kontseptsiyalardan biri sanalab, o'ziga xos murakkab tuzilishga ega sanaladi. Umuman olganda, moliyaviy menejmentning aksariyat nazariyalari, o'rganilishi lozim bo'lgan aniq bir kontseptsiyalarga asoslanadi. Ularni tushunmaslik o'rganilayotgan nazariyalarning mohiyatini anglashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Xorijiy adabiyotlarda moliyaviy menejmentning asosiy kontseptsiyalariga doir ko'plab yondashuvlar bayon etilgan, masalan rus iqtisodchi olimi I.Ya.Lukasevichning fikriga ko'ra moliyaviy menejmentning asosini tashkil etuvchi muhim nazariy konseptsiyalar quyidagilardan iborat :

- pul oqimlari konsepsiyasi;
- pulning vaqtlar bo'yicha qiymati konsepsiyasi;
- risk va daromadlilik konsepsiyasi;
- bozorlarning samaradorligi to'g'risidagi gipoteza;
- aktivlar baxosini shakllanish nazariyasi;
- kapital tuzilishi (strukturalari) va dividend siyosati nazariyalari;
- agentlik munosabatlari nazariyasi.

Mazkur kontsepsiyalar korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olim tomonidan keltirilgan kontsepsiyalar, aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy menejment mexanizmining barcha bosqichlarini (elementlarni) o'z ichiga qamrab oladi.

Risk va daromadlilik moliyaviy menejmentning asosiy kontsepsiyalaridan biri sanalib, mazkur kontsepsiyaning nazariy asoslari ilk marta 1921-yilda amerikalik iqtisodchi olim Frank Nayt (Frank H. Knight) tomonidan "Risk, noaniqlik va foyda" ("Risk, Uncertainty and 'profit'") asarida tadqiq etilgan [4]. Keyinchalik risk va daromadlilik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik kontsepsiyasi boshqa olimlar tomonidan takomillashtirib borildi.

Kontsepsiyaning mohiyati shundan iboratki, biznesdan olinadigan har qanday daromad hajmi va bir vaqtda yuzaga keladigan risk darajasi o'rtasida to'g'ri proportsionallik mavjud, ya'ni kutilayotgan daromad hajmi qanchalik ko'p bo'lsa risk darajasi mos ravishda shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha. Ko'plab moliyaviy aktivlarni baholash modellari (investitsiya kiritishning moliyaviy instrumentlari) va portfel nazariyasi tizimidagi investitsion tahlil metodikasi mazkur kontsepsiyaga asoslanadi.

Risk va daromadlilik kontsepsiyasida, "risk" va "daromadlilik" tushunchalari o'ziga xos ravishda talqin etilib, boshqa iqtisodiy fanlar tomonidan mazkur tushunchalarga berilgan tariflar bilan ayrim o'xshashlik jihatlari mavjud.

Moliyaviy menejmentning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritishga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar mualliflari amerikalik iqtisodchi olimlar Jeyms

Van Xorn (Jamec C.Van Horne) va Jon Vaxovichlar (John M.Vachowicz) risk va daromadlilik tushunchalarini quyidagicha izohlaydilar.

Ma'lum bir davr uchun (masalan bir yil) investitsiyadan olinadigan daromadlilik – investitsiya ob'yektiga egalik qilish huquqini realizatsiya qilish natijasida olinadigan daromadga qo'shamiz investitsiya ob'yekti bozor bahosining o'zgarishi, hamda mazkur ob'yektning dastlabki narxiga bo'lish orqali aniqlanadi [5]. Iqtisodchi olimlar tomonidan, risk va daromadlilik tushunchalariga ta'rif berishda nazariy yondashuvlardan chekingan holda, asosan kompaniyalar amaliyotida hisoblash usullariga yondashgan holda tariflar keltirilgan.

Masalan, biz 100 so'm bo'lgan qimmatli qog'ozni sotib oldik, ushbu investitsiya ob'yekti bizga 7 so'm dividend shaklida daromad keltirib bir yildan so'ng uning narxi 106 so'mga o'zgaradi. Ushbu vaziyatda daromadlilik $(7s+6s)/100s=13\%$ ni tashkil etadi. Bunday holda, investorda ikki ta daromad manbai mavjud bo'lib bular, qimmatli qog'oz bo'yicha to'lanadigan va uning bahosini o'sishidan (yoki kamayishi) olinadigan daromad hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, moliyaviy menejmentda daromadlilik deyilganda, ma'lum bir ob'yektga kiritilgan investitsiyadan va uning bozor bahosini o'zgarishidan olinadigan daromad tushunilib, mazkur ko'rsatkich odatda investitsiya ob'yektning dastlabki narxiga nisbatan foizda ifodalanadi. Oddiy aksiyalar uchun ma'lum bir davr mobaynida (t davrda) egalik qilishdan olinadigan daromadlilik quyidagicha aniqlanadi:

$$R = \frac{D_t + (P_t - P_{t-1})}{P_{t-1}} \quad (1)$$

Bu yerda:

R - kutilayotgan (xaqiqiy) daromadlilik,

D_t – t davr oxirida to'lab beriladigan dividendlar,

't – egalik qilish davri oxirida aksiyaning baxosi, 't-1 – t-1 davr boshida aksiyaning bahosi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur formula ma'lum bir davr oralig'ida aksiyaning real daromadliligini aniqlash bilan bir qatorda kelgusi davr uchun ham ushbu ko'rsatkichni hisoblash (aksiyaning kursi va to'lanadigan dividendlar miqdorini aniqlash asosida) imkonini beradi. Formulaning qavslar ichida keltirilgan qismi (elementlari) ushbu davrda moliyaviy resurslarning ortishi yoki kamayishini anglatadi.

Moliyaviy menejment oldiga qo'yilgan maqsadga erishish nuqtai nazaridan, risk ma'lum bir sohaga yo'naltirilgan sarmoyadan kutilayotgan natijalarni (daromadlarni) real erishilgan natijalardan og'ishi sifatida izohlanadi. Agar investitsiyaning qaytishi me'yoriy taqsimotga amal qilsa, bunda risk uning standart og'ishi bo'yicha vakolatlanishi mumkin. Bu jarayonni matematik formula orqali quyidagicha ifodalashimiz mumkin [6]:

$$Risk = \sqrt{\frac{1}{T-1} \sum_{t=1}^T (R_t - \bar{R})^2} \quad (2)$$

R_t - t davr mobaynida investitsiyaning qaytishi (1 yildan T yilgacha);

$\bar{R}$ - investitsiyaning o'rtacha qaytishi.

Ushbu formulani mazmunini yanada kengroq tushunish uchun quyidagi shartli misoldan foydalanamiz. Misoldagi ma'lumotlar xorijiy manbalardan olinib muallif tomonidan maqola maqsadiga moslashtirilgan.

Quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha investitsiya loyihasi mavjud bo'lib, mazkur investitsiyaning riski qanday bo'ladi degan savolga javob beramiz.

Yillar	1	2	3	4	5
Darom adlilik (%) da)	10	-2	0	5	7

$$Risk = \sqrt{\frac{1}{5-1}(10-4)^2 + \frac{1}{5-1}(-2-4)^2 + \frac{1}{5-1}(0-4)^2 + \frac{1}{5-1}(5-4)^2 + \frac{1}{5-1}(7-4)^2} = \sqrt{24,5} = 4,95$$

Yuqoridagi hisob-kitobga tayangan holda, ushbu investitsiyaning jami yillik daromadliligini o'rtacha miqdori 4% ni tashkil qilganligiga qaramasdan, o'tgan davrdagi hech bir real daromadlilik kutilgan natijani ko'rsatmagan. 1 yil 4 va 5

yillardagi daromadlilik miqdori kutilganidan yuqoriroq (ijobiy risk) va aksincha 2 va 3 yillardagi real daromadlilik miqdori pastroq (salbiy risk) bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi tebranishlar, ya'ni o'rtacha miqdordan (kutilgan natijadan) chetlanishlar moliyaviy menejmentda riskning mohiyatini ifolaydi. Iqtisodchi olimlar tomonidan keltirilgan tariflardan kelib chiqqan holda, fikrimizcha moliyaviy risk – bu tashqi muhitning noaniqliq sharoitida korxonalar tomonidan xo'jalik-moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda daromad va moliyaviy resurslarni yo'qotilishi kabi salbiy oqibatlarni paydo bo'lish ehtimolligidir.

Agar investitsiyaning daromadlilikida me'yoriy taqsimlanish kuzatilsa hamda investor yuqori va quyi risklardan hech qanday imtiyozga ega bo'lmasa, bunday jarayonda standart og'ish – risk o'lchovining haqiqiy o'lchovi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan misolimizni jadval shaklida quyidagicha aks ettirishimiz mumkin. Mazkur jadval yuqorida keltirilgan shartli misol asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

11-jadval

Investitsiya daromadlilik va risk darajasining tahlili

Yil	Daromadlilik (%)	Og'ish = (Qaytish-o'rtacha qaytish)	Kvadrat chetlanish
1	2	3	4
1	10	6	36
2	- 2	- 6	36
3	0	- 4	16
4	5	1	1
5	7	3	9
Jami	20		98
O'rtachasi	4		24,5
Standart og'ish			4,95

Moliyaviy menejmentda risk o'ldir sifati standart og'ishdan foydalanishning mohiyati shundaki, u kiritilayotgan investitsiyaning statistik xususiyatlarini tadqiq etish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida belgilangan me'yorda foyda olish ehtimoligini baholash uchun imkoniyat yaratadi. Yuqoridagi jumalarning mazmunini yanada kengroq tushunish uchun quyidagi misolni keltirib o'tamiz. 1-savol: Yuqoridagi 1-misolda, investor kiritgan sarmoyasidan 10 % lik daromadga ega bo'lish ehtimoligi qanday?

2-savol: Investor kiritgan sarmoyasidan zarar ko'rmaslik ehtimoligi qanday? Misoldagi 1 savolga quyidagicha javob keltirish mumkin. Kutilayotgan natijaning (daromadning) ehtimoligini aniqlash formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Prob(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma^2}} e^{-\frac{(x-\mu)^2}{2\sigma^2}} \quad (2)$$

Bu yerda: μ -o'rtacha daromadlilik; σ -standart og'ish; x -funktsiyaning natijasi hisoblanadi;

Masalaning shartidan kelib chiqadigan bo'lsak, $\mu=4\%$; $x=10\%$; $\sigma =4.95$ ga teng bo'ladi. (2) formulaga asosan quyidagilarni aniqlashimiz mumkin.

$$Prob(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma^2}} e^{-\frac{(x-\mu)^2}{2\sigma^2}} = \frac{1}{\sqrt{2 \times 3,1416 \times 24,5}} \times e^{\frac{(10-4)^2}{2 \times 24,5^2}} = \frac{1}{153,9384} \times 2,71^{-0,734} = 0,038$$

Demak, kiritilgan investitsiyaning qaytimi 1-misolda keltirilgan

shartlar asosida bo'lsa, bunday vaziyatda investorning 10 % li daromadga ega bo'lish ehtimoligi 0,038 ga teng bo'ladi. Misolning 2-savoliga keladigan bo'lsak, investor uchun zarar ko'rmaslik ehtimoligi, investitsiyani qaytish ehtimoligi 0% ga yoki undan yuqori bo'lish ehtimoligiga teng. Normal taqsimot egri chizig'ining o'rtacha qiymatga simmetrik ekanligini e'tiborga olib, aytishimiz mumkinki, investitsiyaning qaytish ehtimoligi 4 %, undan yuqoriroq bo'lish ehtimoligi 50 % bo'lishi mumkin. Shunday qilib, 0 va 4% oralig'idagi investitsiyaning qaytish ehtimoligi qanday? Bu savolga javob berish uchun z -ning qiymatini quyidagicha aniqlab olamiz:

$$z = \left| \frac{x-\mu}{\sigma} \right| \quad (3)$$

Bizning misolimizda $z=(0-4)/4,95=0,808$

Standartlashtirilgan normal taqsimot maydoni” jadvalidan foydalanib, 0% va 4% oralig’ida investitsiyaning qaytish ehtimolligini 0,291 ga teng ekanligini aniqlashimiz mumkin. Shu sababli investorlarning yo`qotishlardan zarar ko`rmaslik ehtimolligi, bu vaziyatda 0.791 ($0.5+0.291$) ga teng deb hisoblaymiz. Ta’kidlash lozimki, yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblar orqali biz, moliyaviy menejmentda risk va daromadlilik kontsepsiyasi va uning amaliy - nazariy masalalarini ayrim jihatlarini ko`rib chiqishga muvaffaq bo`ldik. Korxonalar moliyaviy faoliyatini amalga oshirish jarayonida moliyaviy risklarni samarali baholash va uning daromadlilik darajalarini aniqlash murakkab tuzilishga ega bo`lib, ko`plab matematik formulalar va hisob-kitob ishlarini amalga oshirish zarur. Shuning uchun ham, risk va daromadlilikning barcha jihatlarini mukammal tarzda bir misolda yoritib berish imkoniyati mavjud emas.

Xulosa sifatida aytadigan bo`lsak, mamlakatimiz sanoat tuzilmalarida moliyaviy boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqish jarayonida, bugungi kunda dolzarb bo`lib borayotgan zamonaviy korporativ boshqaruvning xalqaro talablaridan biri sanalgan (Chief Financial Officer - CFO) moliyaviy masalalar bo`yicha rahbar o`rinbosari lavozimlariga alohida e’tiborni qaratishlari lozim. Korporativ tuzilmalarda mazkur turdagi lavozimlarni tashkil etilishi moliyaviy menejmentning aksariyat funktsiyalarini bajarish bilan birga, asosiy funktsiyalaridan biri sanalgan moliyaviy risklarni oqilona boshqarishga doir qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Bugungi kunda sanoat korxonalarida korxonalari oldiga nafaqat ichki bozorni to'ldirish, balki eksport qilinadigan mahsulotlar sanoat korxonalarida va bu orqali jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish vazifalari o'rnatilmoqda. Shu bois, bozor iqtisodiyoti fanimizga, ongimizga yangi tushunchalar va iboralarni olib kirdi va olib kirmoqda. Shu tariqa xalqimizning ijtimoiy ongi, turmush tarzi va fanimiz tubdan o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Bir vaqtlar ko'pchilikka notanish so'zlar bugungi kunda hech kimga g'ayritabiiy tuyulmaydi. Tavakkalchilik yoki «Risk», «Riskni boshqarish» iqtisodiy kategoriya sifatida biz uchun nisbatan yangi tushunchalardan biri hisoblanadi.

Sanoat korxonalari tez o'zgaruvchan iqtisodiyotda boshqaruv sanaitidan foydalanishi va ularni qo'llash orqali faoliyatlarida yuzaga keladigan zarar va xavflarni oldindan ko'ra bilishi va baholay olishi birinchi galdagi vazifasiga aylanishi foydadan holi bo'lmas edi. Bugungi kun sharoiti mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqaruvchilardan o'z faoliyatlarini to'g'ri va samarali tashkil etishni, «yetti o'lchab, bir kesish»ni taqozo etmoqda. Ayniqsa, xususiy tadbirkorlar bu borada teranroq fikr yuritishlariga, chuqur mulohaza bilan ish yuritishlariga to'g'ri kelmoqda. Chunki ular tomonidan yo'l qo'yilgan kichik bir xato va xavfni ko'ra olmaslik, ularni inqirozga olib kelishi va oqibat natijada bor mol-mulki, mablag'laridan ajralib, bankrot holatiga olib kelishi mumkin. Barcha rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSHda tadbirkorlar sanoat korxonalaridani «tashkil qilish», «boshqarish» tushunchalari bilan bog'laydilar. Masalan: «mehnat unumdorligini boshqarish», «sifatni boshqarish», «narxni boshqarish». Ushbu tushunchalar bilan birgalikda rivojlangan mamlakatlar sanoat korxonalarida tadbirkorlar «risk», «riskni boshqarish» kabi boshqaruv turidan ham keng va samarali foydalanadilar.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy davlatlarda filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Filial va vakolatxonalar boshqaruvi jamiyat

tomonidan tayinlangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va ular jamiyat bergan ishonchnoma asosida ish ko'radi.

Korxonadagi 1-ishlab chiqarishdagi faoliyat, mavjud dastgoxlarning xolati, xom ashyolarni sotib olish darajasi va korxona mahsulotlari narxlarining raqobatbardoshliligi ko'rsatkichlari nisbatan zaif tomonlar ekanligi aniqlandi. Korxonada amalga oshiriladigan tadbirlar va ilmiy izlanishlar mana shu tomonlarga yo'naltirilishi lozim. 1-ishlab chiqarishdagi xolat dastgohlarning jismoniy eskirgani natijasida kelib chiqqan bo'lib, uning natijasida mahsulot tannarxi ortib ketgan va narxni raqobatbardoshliligi tushib ketgan. Demak, korxona rahbariyati va iqtisodchilari oldida turgan eng dolzarb masala – mavjud dastgoxlarni yangi, yuqori unumli va kam sarf-harajat talab etadiganlarini topish hamda ularni jadal tarzda ishlab chiqarishda qo'llashdir. Korxonaning eng muhim qator ko'rsatkichlari, shu jumladan, mahsulot sifati, ishlab chiqarishning xolati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, mahsulot sotish kanallari, bozor izlanishlari, korxonaning texnik imkoniyatlari, yangi mahsulot innovatsiyasi, boshqaruv faoliyati, moliyaviy resurslardan foydalanish singari ko'rsatkichlar va ular asosidagi yo'nalishlarda o'rta darajada faoliyat yuritilmoqda. Bu sohalarda ham izlanishlar olib borish hamda ahvolni yaxshilashga doir tadbirlar tuzish va ularni tezda joriy qilish ishlarini olib borish lozim.

Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlarning xarajatlari tahlil qilinganda, asosiy harajat xom ashyoga sarflanishi aniq bo'ldi. Xom ashyo harajatlari jami harajatlarning 85,1% ni tashkil qildi. O'tgan yili esa 83,6 % ni tashkil qilgan edi. Demak, umumiy harajatlarning tarkibida xom ashyo harajatlari ortib bormoqda.

Bugungi kunda Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining innovatsion boshqaruvida ilmiy-texnika va ishlab chiqarish-savdo faoliyatiga yo'naltirilgan tendensiya yuzaga kelgan. Bu tendensiya eng avvalo assortimentni ko'paytirishga intilish doirasida namoyon bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarishda yangi ilm talab etuvchi buyumlar solishtirma og'irligi ortib boradi.

Ikkinchi tomondan esa an'anaviy mahsulot ishlab chiqarishda harajatlarni kamaytirishga intilish kuchayadi.

Jahon amaliyotida bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Innovatsiyalarni qo'llash natijasida katta foydalarga erishi bilan birga muayyan xavf-xatarning mavjudligidan, ya'ni tavakkalchilikni noo'rin qo'llanilganidan zarar ko'rish ham mumkin. Masalan bugungi kunda, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozli davrda innovatsion menejmentdagi bunday tendensiya ayniqsa AQSH mashinasozligida sezilarli namoyon bo'lmoqda. Biroq, radioelektronika, EXM va mikroprotsesszorlar yaratishda, aloqa vositalari, aviakosmik texnika, energetik inshootlar, avtomatizatsiya vositalari va boshqa shu kabi sohalarda aniq ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ilmiy-texnika yondashuvi asosidagi boshqaruvda uzviy muammolar yuzaga kelgan. Bu muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aniq bozorlarning doimiy o'zgaruvchanligi;
- bozor muhitiga ishlab chiqarishning tez va to'g'ri moslashuvdagi qiyinchiliklar;
- bozor o'zgarishlariga ko'ra joriy va o'rta muddatli rejalarga tegishli tuzatishlar kiritishdagi qiyinchiliklar;
- o'zgarib qolgan rejalarga bog'liq holda harajatlarni minimallashtirishdagi qiyinchiliklar.

Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ilmiy-texnika boshqaruvi quyidagi asoslangan masalalarni hal etishni taqozo etadi: birinchidan, umuman yangi mahsulot ishlab chiqarish (vazifasi bo'yicha bozorda bu mahsulotga o'xshagan mahsulot yo'q). Bunday yondashuvni amalga oshirish iste'molchiga faol ta'sir etadi.

Uning yangi ehtiyojlarini yuzaga keltiradi. Biroq bunday yondashuv ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish sohasida juda katta harajatlarni talab etadi. E'tiborli tomoni shundaki, umuman yangi tovar ishlab chiqarishda raqobat tovarni loyihalash bosqichlaridayoq boshlanadi. Namangan «Mexmash» ochiq

turdagi aksiyadorlik jamiyatida buning uchun korxona likvidlilik darajasini oshiradigan chora-tadbirlarni ko'rib borish zarur.

Ikkinchidan, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish (bozorda bunday mahsulotga o'xshashlari bor bo'lgan mahsulot). Bunday mahsulotlar bozorda tijorat jihatdan tezda ustunlikka erishadilar. Korxona NIOKR ya'ni (ITTLI-ilmiy-tadqiqot va tajribaviy loyihalash ishlari) uchun yirik harajatlarni amalga oshirmasada, yangi mahsulot bilan bozorga tez kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bozor to'yinguncha o'z ulushiga ega bo'lib boradi. Bunday siyosatning o'ziga xos tomoni shundaki, yangi mahsulotni yanada boshqacha turlarini ishlab chiqarishga tomon yo'naltirilgan izlashlar olib boriladi.

Biroq buning uchun ham muayyan darajadagi innovatsion xarakatlarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Bu xarakatlar albatta yana moliyaviy harajatlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Uchinchidan, sanoatni mahsulot ishlab chiqarishga texnik jihatdan yangilashga yo'naltirish. Namangan «Mexmash» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ilmiy-texnika boshqaruvining bunday yo'nalishda olib borilishi mahsulotning yangi modernizatsiyalashgan va o'zgarishlar kiritilgan - takomillashgan ko'rinishda ishlab chiqarishni talab etadi. Yangi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida o'xshash mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida firmalar raqobati avj oladi.

To'rtinchidan, an'anaviy mahsulot ishlab chiqarishga sanoatni yo'naltirish asosan eskirgan, biroq o'ziga xos talabga ega bo'lgan an'anaviy texnologiya asosida ishlab chiqarishni tashkil etishni taqozo etadi. Mahsulotlar ma'naviy eskirgan bo'lsa-da, o'zining hayotiy davrining uzaytirilishi hisobiga bozorda muayyan talabga ega bo'ladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sabablari aniqlandi. Ular qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni bozor talablaridan ortda qolishi. Yuqori unumdorlikda ishlaydigan sifatli mahsulot hisoblangan sun'iy

mo'yna va vatin matolariga yetarli darajada talab yo'qligi tufayli ularni ishlab chiqarish vaqtincha to'xtaldi. Shu bilan birgalikda korxona mahsulotining narxini yuqorilab ketishi ham talabga ta'sir ko'rsatdi.

2.Korxonada ishlab chiqariladigan haridorgir mahsulotlar uchun zarur bo'lgan xom ashyo va butlovchi qismlarning yetishmasligidir. Noto'qima mato uchun zarur bo'lgan paxta tolasi bilan ta'minlashda uzilishlar bo'lmoqda. Sun'iy mo'yna mahsulotini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan volteks xom ashyosini faqatgina Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi korxonalarda mavjudligi bois, ularni keltirishda ma'lum qiyinchiliklar sodir bo'lmoqda. Texnik jixozlar uchun zarur bo'lgan chidamli butlovchi qismlarni topishda qiyinchiliklar mavjud. Chunki, bu qismlarning ko'pchiligi Rossiyada ishlab chiqariladi. Ularni keltirish qo'shimcha mablag' talab qiladi.

3.Korxonada foydalaniladigan dastgoxlarning ish unumdorligi umuman past. Chunki, ularning aksariyat qismi jismoniy jihatdan eskidir.

4.Malakali xodimlarning yetishmasligi. Bugungi kunda korxonada ishlayotgan xodimlarning 15-20 % oliy ma'lumotli mutaxassislar bo'lsa, 25-30% o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislardir.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishdagi xavf-xatarlarni yuzaga kelishiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

- ishlab chiqarish jarayoniga arzon ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash. Bu holat ma'lum vaqtgacha foyda keltirishi mumkin. Ammo unga nisbatan yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash oqibatida havf-xatar kuchayadi;

- innovatsion jarayonlarning yangi natijalari eski ishlab chiqarish texnologiyalarga asoslanishi ham ishlab chiqarilayotgan tovarlarga bo'lgan talablarni pasayishi ham havf-xatarni kuchaytiradi;

- innovatsiya yangiliklarni yangi ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslagan holda ham uning tovarlariga bo'lgan talabni bo'lmasligi yoki talabga javob bermasligi mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion faoliyati ko'lamlariga jiddiy ta'sir etuvchi muhim omil – bu cheklashlardir. Davlatning mazkur jarayonlarga aralashuvini e'tiborga olmaganda mablag' va vaqt cheklovlarini farqlaydilar. Odatda yirik innovatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'p tadbirkorlarda mablag' yetishmaydi, tashqi manbalardan mablag' jalb qilishga ham imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bunday cheklov tadbirkorlarning xoldingga, kontsernga, konsortsiumlarga birlashishlari orqali bartaraf etilishi mumkin. Vaqt omili esa innovatsiyalarni amalga oshirishda xarajatlarning qoplanishi uchun muayyan vaqt talab etilishida ifodalanadi. Vaqt ortishi esa ko'pincha iqtisodiy xatarlarning ham ortishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida xavf-xatarlarni bo'lishiga asosiy sabab bozor iqtisodiyoti sharoitida sub'yektlar ma'lumotlarini ayrim vaqtlarda sir saqlash holatida yo'l qo'yilgan hatolarning oqibatidir deb ko'rsatish mumkin. Buning asosiy sababi:

- axborotlarni sir saqlanmasligi;
- marketing siyosatini talabga javob bermasligi;
- yaratilgan yangilik ihtirolarini ishlab chiqarishga jalb etishni talab darajasida emasligi;
- bozorlarda o'zga yoki xorijiy firmalar tomonidan bosqinchilik siyosatini olib borishidadir.

Ishlab chiqarish korxonalarida innovatsiya jarayonni tashkil etishda korxona va tadqiqotchilar hamkorlik qilishlari lozim bo'ladi. Chunki ko'pchilik hollarda innovatsiyaning muallifi va uni joriy etuvchisi bitta shaxsda mujassamlashgan emas. Innovatsiya qandaydir o'ylab topilgan yangilik yoki ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi bo'lishi kerak. korxona qandaydir ilmiy muassasaga topshiriq berishi, ichki yoki tashqi bozordan tayyor litsenziya sotib olishi, patent tadqiqoti o'tkazishi mumkin. Muammo qo'yilsa, olimlar va tadqiqotchilar bu muammo ustida ishlaydilar va yechimini topishga harakat qiladilar. Shu sababli, korxona o'z muammolarini ilmiy-tadqiqot muassasalariga yetkazishi lozim. Bunday ishlarning hammasi korxonada mablag' bo'lishini ham talab qiladi. Yaratilgan innovatsiyani

joriy qilish uchun ham mablag' bo'lishi kerak. korxona o'zida bor bo'lgan resurslardan mablag'lardan foydalanishi, o'zida yo'q bo'lgan holda kredit vositalaridan foydalanishi lozim.

Xavfni kamaytirishda axborot tizimini yaxshilash katta ahamiyatga ega. Bunda ayniqsa buxgalteriya hisobining samarali yo'lga qo'yilishiga intilish lozim. Chunki aynan buxgalteriya hisobi orqali olinishi mumkin bo'lgan foydani oldindan ancha ishonchli hisoblab chiqiladi, xatoga yo'l qo'yish xolatlarning oqibatlari prognoz qilinadi. Demak, buxgalteriya hisobi orqali va boshqa manbalardan olingan ma'lumot va axborotlarni sifatiga va ishonchliligiga alohida e'tibor berish, ularni qayta ishlashni puxta bajarish, uni saqlash va vaziyatni bilib turish foydalanish zarur.

Korxona byudjetini va ishlab chiqarish dasturlarini tuzishda ularning moslashuvchan bo'lishi va ularga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilishi mumkinligi, muqobil variantlar tuzish o'ta muhimdir. Tavakkalchilikni aniqlash, taxlil qilish va uning darajasini baholash, ogohlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqish, uni minimallashtirish, sug'urtalash, zararlarni kamaytirish yo'llarini qidirish, samarali qarorlar qabul qilish bularning barchasi albatta foyda bilan ish faoliyatini yurg'izishga xizmat qilmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi .- T.: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi // [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi // <http:// www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // <http:// www.lex.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi // <http:// www.lex.uz>.
6. “Aholining bandligi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni // <http:// www.lex.uz>.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. - T.: “O'zbekiston”, 1996.
8. Karimov I.A.. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997.
9. Karimov I.A.. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1999
10. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. T.: O'zbekiston, 2005.
11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.
12. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir. –T.: O'zbekiston, 2006.
13. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va islohotlarimizning pirovard maqsadidir. – T.: O'zbekiston. 2007.
14. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir.-T.: O'zbekiston. 2007.
15. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash - barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. –T.:O'zbekiston. 2008.

16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008.
17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston. 2009.
- 18.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: O'zbekiston, 2010.
- 19.Karimov I.A.. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010.
20. Karimov I.A.. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi:– T. O'zbekiston, 2011.
21. Karimov I.A. O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli / “Sog'lom ona – sog'lom bola” mavzuidagi xalqaro simpozium ochilishidagi nutq // Xalq so'zi, 2011 yil 27 noyabr.
22. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012.
23. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar.
24. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti // Xalq so'zi, 2012 yil 20 fevral.
25. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. Xalq so'zi 16 yanvar 2016 yil.

26. Abel E., Bernanke B. Makroekonomika / Per. s angl. N.Gabenova, A. Smol'skogo; nauchn. red. d.e.n., prof. L. Simkina. — SPb.: Piter, 2008.
27. Abulqosimov H.P. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar. —T.: Akademiya. 2008.
28. Artıkov A.A., Zokirova N.K., Abduraxmanov O.K. CHelovecheskiy kapital v usloviyax reformirovaniya i modernizatsii ekonomiki. Monografiya. —T.: Fan va texnologiya, 2008.
29. BMTning Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 8 sentyabrdagi 55/2 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan // <http://www.un.org>.
30. Boblev S. N., Girusov E. V., Perelet R. A. Ekonomika ustoychivogo razvitiya. Uchebnoe posobie. -M.: Izd-vo «Stupeni», 2004.
31. Davlatning makroiqtisodiy siyosati (o'quv qo'llanma). —T.: Akademiya. 2007.
32. Istoriya ekonomicheskix ucheniy: Sovremenniy etap: Uchebnik / Pod obsh. red. A. G. Xudokormova. — M.: INFRA-M, 2009.
33. Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. —T.: “Fan texnologiya”, 2009.
34. Kastels M. Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshestvo, kultura. — M.: GU VSHE, 2006.
35. Keynes Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. /Per. s angl. prof. N. N. Lyubimova; pod red. d.e.n., prof. L. P. Kurakova.— M.: Gelios ARV, 2002.
36. Korchagin Yu.A. TSikli razvitiya chelovecheskogo kapitala kak drayveri innovatsionnix voln. - Voronej: TSIRE, 2010
37. Lyubetskiy V.V. Mirovaya ekonomika (uchebno-metodicheskiy kompleks) – M.: MI EMP, 2010.
38. Makkonel K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: printsipi, problemi i politika / Perevod s 13-go angliyskogo izdaniya. — Moskva: INFRA-M, 1999.

39. Petti V., Smit A., Rikkardo D., Keyns Dj.M., Fridmen M. Sochineniya / Klassika ekonomicheskoy misli. –M.: EKSMO Press, 2000.
40. Prognoz i modelirovanie krizisov i mirovoy dinamiki / Otv. red. A.A. Akaev, A.V. Korotaev, G.G. Malinetskiy. - M.: Izdatelstvo LKI/URSS, 2010.
41. Proekt Stranovoy programmi PROON dlya Uzbekistana na 2010-2015 gg. (19 marta 2009 g.) //http: // www.undp.org
42. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. –M.: Eksmo, 2007.
43. Ekonomicheskiy rost i innovatsii: teoriya i praktika modeli. – T.: Institut prognozirovaniya i makroekonomicheskix issledovaniy, PROON, 2010.
44. Ekonomicheskaya teoriya / Pod red. Ye. N. Lobachyovoy. — 2-e izd.. - M.: Visshee obrazovanie, 2009.
45. Yadgarov Ya. S. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: Infra-M, 2004.
46. O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibligi // Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. – T.: BMT rivojlanish dasturi, 2007/2008.

Internet manbalari:

- <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasining davlat portali.
- <http://www.mineconomu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti
- <http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy sayti
- <http://www.mexnat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
- <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Statistika bo'yicha davlat qo'mitasining sayti.
- <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti.
- <http://www.ilo.org> – Xalqaro mehnat tashkilotining sayti.